

# ETIKA, ESTETIKA VA INSON FALSAFASI

O'quv-uslubiy qó'llanma

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI**

**ORIENTAL UNIVERSITETI**



**ULFATILLAYEVA SAYYORA SOBIRJON QIZI**

**Falsafa fanidan  
(Etika, Estetika, Inson falsafasi)**

**O‘quv-uslubiy qo‘llanma**

**TOSHKENT – 2026**

**UO‘K 111.1**

**KBK 87.21**

**U-35**

**Muallif: Ulfatillayeva.S.S** Falsafa fanidan. Uslubiy qo‘llanma – Toshkent: Oriental universiteti, 2026. – 80 b.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada etika, estetika hamda inson falsafasining asosiy mavzulari tizimli va izchil tarzda yoritilgan bo‘lib, unda axloqiy qadriyatlar, go‘zallik va san‘at, shuningdek, insonning mohiyati, hayot mazmuni, erkinligi va mas‘uliyati kabi muhim falsafiy masalalar keng tahlil qilingan. Mavzularning o‘zaro uzviy bog‘liqligi, ularning jamiyat va shaxs hayotidagi o‘rni falsafiy nuqtayi nazardan ochib berilgan.

O‘quv qo‘llanma fan dasturlarining asosiy adabiyotlari va zamonaviy talablari asosida tuzilgan bo‘lib, barcha bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlarida o‘qitiladigan “Etika”, “Estetika” va “Inson falsafasi” fanlarini o‘rganishga mo‘ljallangan. Unda nazariy bilimlar bilan bir qatorda, talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, tahliliy mushohada yuritish qobiliyatini oshirishga xizmat qiluvchi savol va topshiriqlarga ham o‘rin berilgan. Shuningdek, mazkur qo‘llanma axloq, madaniyat, san‘at, inson va shaxs muammolariga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi uchun ham foydali manba bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanma “Oriental universiteti” Ilmiy-uslubiy kengashi yig‘ilishining 2026-yil fevral oyidagi 5-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan.

**Taqrizchilar:**

Oriental universiteti dotsenti, t.f.n.

Xo‘jaxonov Ismoil Mansurovich

O‘zMU “Ijtimoiy fanlar fakulteti”

Falsafa kafedrası katta o‘qituvchisi PhD Djurayeva N

© Ulfatillayeva Sayyora Sobirjon qizi, 2026.

© Oriental universiteti, 2026.

## KIRISH

Mazkur uslubiy qo‘llanma oliy ta‘lim muassasalari ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda falsafaning muhim bo‘limlari hisoblangan etika, estetika va inson falsafasi (falsafiy antropologiya) mavzulari yoritiladi. Ushbu mavzular orqali talabalarda inson, jamiyat va borliq haqidagi falsafiy dunyoqarashni shakllantirish, ularni mustaqil va tanqidiy fikrlashga o‘rgatish, shuningdek, ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsad qilingan.

Falsafa insoniyat tafakkurining eng qadimiy va eng muhim sohalaridan biri bo‘lib, u insonning o‘zi, uning hayotdagi o‘rni, borliqning mohiyati, bilish jarayoni va qadriyatlar dunyosini o‘rganadi. Ayniqsa, etika, estetika va inson falsafasi kabi bo‘limlar bevosita insonning ichki dunyosi, uning axloqiy qarashlari, go‘zallikka munosabati hamda hayot ma‘nosini anglash bilan bog‘liqdir.

Etika – axloq haqidagi falsafa bo‘lib, u insonning xulq-atvori, burchi, mas‘uliyati, vijdoni, ezgulik va yovuzlik kabi tushunchalarni o‘rganadi. Hozirgi globalashuv davrida axloqiy qadriyatlarning ahamiyati yanada ortib, yoshlarni ma‘naviy barkamol, vatanparvar va mas‘uliyatli shaxs sifatida tarbiyalash muhim vazifaga aylanmoqda.

Estetika esa go‘zallik, san‘at va estetik ong haqidagi ta‘limot bo‘lib, insonning borliqqa, tabiatga va san‘at asarlariga bo‘lgan munosabatini tahlil qiladi. Go‘zallikni anglash va qadrlash insonning ma‘naviy kamolotida muhim o‘rin tutadi. Estetika insonda nafosat tuyg‘usini, did va estetik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Inson falsafasi yoki falsafiy antropologiya esa insonning mohiyati, kelib chiqishi, biologik va ijtimoiy tabiatining birligi, ong, erkinlik, mas'uliyat hamda hayot ma'nosi kabi masalalarni o'rganadi. "Inson kim?" degan savol qadimdan buyon faylasuflarni o'yantirib kelgan va bu savolga turli davrlarda turlicha javoblar berilgan. Bugungi kunda ham bu masala o'z dolzarbligini yo'qotmagan, aksincha, ilm-fan va texnika taraqqiyoti sharoitida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu uslubiy qo'llanmaning asosiy maqsadi – talabalarga etika, estetika va inson falsafasi bo'yicha asosiy tushunchalar, nazariy qarashlar va muammolarni sodda, tushunarli va tizimli tarzda yetkazishdan iborat. Qo'llanma mavzularni o'rganishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda, amaliy fikrlash, bahs-munozara qilish va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ushbu qo'llanma orqali talabalar insonning nafaqat biologik mavjudot, balki ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy shaxs ekanligini chuqurroq anglaydilar. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyati va jamiyatdagi o'rnini belgilashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, etika, estetika va inson falsafasi mavzularini o'rganish yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi, ularni komil inson bo'lib yetishishiga, jamiyat oldidagi burch va mas'uliyatini chuqur anglashiga xizmat qiladi. Mazkur uslubiy qo'llanma ana shu ezgu maqsadlarga erishishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

# ETIKA FANINING PREDMETI VA JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI

## ETIKA FANINING TUZILMASI

- ➔ Axloqiy Tamoyillar
- ➔ Axloqiy Qadriyatlar
- ➔ Odob Me'yorlari

## ASOSIY TUSHUNCHALAR

- Yaxshilik
- Yomonlik
- Burch va Vijdon
- Adolat va Mas'uliyat



## FAN PREDMETI

- Inson Axloqi
- Xulq-Atvor
- Qadriyatlar

# ETIKA

## JAMIYATDAGI O'RNI

- Tarbiya, Odob
- Halollik, Adolat
- Kasbiy Axloq



## JAMIYATDAGI AHAMIYATI

- ➔ Tarbiyada
- ➔ Kasb-Hunar Sohasida
- ➔ Davlat va Jamiyatda

## XULOSA

Ma'naviyat

➔ Odob-Axloq

➔ Halollik

➔ Vatanparvarlik

## 1-mavzu. Axloq va qadriyatlar falsafasi (Etika).

### Reja:

1. Etika fanining predmeti va jamiyat hayotidagi o‘rni.
2. Axloqning kelib chiqishi va axloqiy fikrlar taraqqiyoti.
3. Axloqiy tushunchalar va axloqiy madaniyat.

*Tayanch so‘zlar: Etika, axloq, etosfera, axloqning oltin qoidasi, fazilat, illat, axloqiy kategoriyalar, tamoyillar, me‘yorlar, oila, nikoh, oilaviy mulk, farzand tarbiyasi, oilani ijtimoiy himoyalash, burch, nikohning diniy asoslari, nikohning huquqiy asoslari, axloqiy madaniyat, muomala odobi, etiket, kasbiy odob, axloqiy tarbiya, komil inson, ekologik axloq.*


**ETIKA → AXLOQ → MADANIYAT → MA’NAVIYAT →  
BARKAMOL INSON → KUCHLI JAMIYAT**

### 1. Etika fanining predmeti va jamiyat hayotidagi o‘rni.

Yevropada yunoncha «ethos» so‘zidan olingan «Etika» nomi bilan bizga tanish bo‘lgan axloq falsafasi bir necha ming yillik tarixga ega bo‘lgan qadimiy fan. Bu atamani ilk bor yunon faylasufi Arastu ilmiy muomalaga kiritgan. Etika fani axloqning kelib chiqishi va mohiyatini, kishining jamiyatdagi axloqiy munosabatlarini o‘rganadi. «Axloq» so‘zi arabchadan olingan bo‘lib, insonning muomala va ruhiy xususiyatlari majmuini, fe‘lini, tabiatini anglatadigan «xulq» so‘zining ko‘plik shaklidir. «Axloq» iborasi ikki xil ma’noga ega: umumiy tushuncha sifatida u fanning tadqiqot ob’ektini anglatsa, muayyan tushuncha sifatida inson fe‘l–atvori va xatti– harakatining eng qamrovli qismini bildiradi. Axloqni umumiy tushuncha sifatida olib, uni doira shaklida

aks ettiradigan bo‘lsak, doiraning eng kichik qismini odob, undan kattaroq qismini – xulq, eng qamrovli qismini axloq egallaydi.


## AXLOQIY TUSHUNCHALAR



**ODOB**–inson haqida yoqimli taassurot uyg‘otadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida burilish yasaydigan darajada muhim ahamiyatga ega bo‘lmaydigan, milliy urf– odatlarga asoslangan chiroyli xatti–harakatlarni o‘z ichiga oladi.

**XULQ**– oila, jamoa, mahalla–ko‘y miqyosida ahamiyatli bo‘lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydigan yoqimli insoniy xatti–harakatlarning majmui.

**AXLOQ**– jamiyat, zamon, ba’zan umumbashariy ahamiyatga ega, insoniyat tarixi uchun namuna bo‘la oladigan ijobiy xatti–harakatlar yig‘indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma’naviy hodisa.



**Etika va estetika.** Avvalo, insonning har bir xatti–harakati va niyati ham axloqiylikka, ham nafosatga tegishli bo‘ladi, ya’ni muayyan ijobiy faoliyat ham ezgulik (ichki go‘zallik), ham nafosat (tashqi go‘zallik) xususiyatlarini mujassam qiladi. Ayni paytda, bu ikki fanda ba’zan bir tushunchaning ikki xil ko‘rinishini uchratish mumkin. Chunonchi, estetikasidagi ulug‘vorlik tushunchasi, axloqshunoslikda qahramonlik tarzida tavsiflanadi. Shuningdek, estetikada ildizi axloqshunoslikka borib taqaladigan inson axloqiyligi darajasi bilan bog‘liq xulqiy go‘zallik degan tushuncha ham mavjud.

**Etika va dinshunoslik.** Etikaning dinshunoslik bilan aloqasi shundaki, har ikkala fan ham bir xil muammo – axloqiy mezon muammosini hal etishga qaratilgan. Chunki umumjahoniy dinlar vujudga kelguniga qadar mavjud bo‘lgan ma’lum urf–odatlar va qadriyatlar muayyan diniy qonun–qoidalarga, muqaddas diniy kitoblarga katta ta’sir ko‘rsatgan. Ayni paytda, dinlar ham axloqqa ana shunday ta’sir o‘tkazganlar.

**Etika va huquqshunoslik.** Etika huquqshunoslik bilan aloqasi uzoq tarixga ega. Ma’lumki, juda ko‘p hollarda axloq me’yorlari bilan huquq me’yorlari mohiyatan va mazmunan bir xil bo‘ladi. Shunga ko‘ra, axloqni jamoatchilik asosidagi huquq, huquqni esa qonuniylashtirilgan axloq deb atash mumkin. Zero, axloqshunoslik bilan huquqshunoslikning tadqiqot ob’ektlari ko‘p jihatdan o‘xshash, ular faqat yondashuv usuli nuqtai nazaridan farq qiladi.

**Etika va pedagogika.** Pedagogikadagi shaxsni shakllantirish, tarbiyalash, ta’lim berish jarayonlarini pand–nasihatlarsiz, odobnoma darslarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu bois axloqshunoslik o‘zining

nazariy va, ayniqsa, amaliy jihatlari bilan pedagogikaning asosi hisoblanadi. Zero, maorif tizimidagi ta'lim–tarbiya o'zini har bir qadamda axloqiy tarbiya sifatida namoyon qiladi.

**Etika va ruhshunoslik.** Qadimdayoq axloqshunoslikning ruhshunoslik (psixologiya) bilan aloqasi alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Zotan, bu ikkala fan kishilar xatti–harakati, fe'l– atvori va mayl–istaklarini o'rganadi. Lekin bu o'rganish ikki xil nuqtai nazardan olib boriladi: ruhshunoslik u yoki bu xatti–harakat, fe'l–atvor, sababiy asos (motiv)larning ruhiy tabiati va shakllanish shart–sharoitlarini ochib beradi, axloqshunoslik esa ruhshunoslik tadqiq etgan hodisalarning axloqiy ahamiyatini tushuntiradi.

**Etika va sotsiologiya.** Ma'lumki, sotsiologiya insonlarning ommaviy xatti–harakati va ularning qonuniyatlarini faqat muayyan ijtimoiy tuzum doirasidagina tadqiq etadi. Axloqshunoslik esa, o'z mohiyatiga ko'ra, lozim bo'lganda, muayyan ijtimoiy tuzum yoki davr doirasidan chiqib, inson axloqining yuksak yutug'i sifatida kelgusi davrlar uchun ham tarixiy va axloqiy ahamiyat kasb etgan shaxsiy, istisnoli xatti–harakatlarni hamda ularning sababiy asoslarini o'rganadi.

**Etika va siyosatshunoslik.** Siyosiy kurash qarama–qarshi axloqiy qoidalar va talablar kurashini taqozo etadi. Shaxsiy intilishlar bilan davlat va jamiyat manfaatlarining mosligi, maqsadlar va vositalarning pok yoki nopokligi muammolari o'rta chiqadi. Lekin, aslida siyosat qay darajada axloqiylik kasb etsa, shunchalik u oqilona bo'ladi. Shuningdek, rahbarlik odobi, partiyaviy odob, etiket singari axloqshunoslikning axloqiy madaniyati doirasiga kiruvchi maxsus sohalari ham siyosatshunoslik bilan chambarchas bog'liq.

**Etika va ekologiya.** Keyingi paytlarda axloqshunoslikning ekologiya bilan aloqasi tobora mustahkamlanib bormoqda. Axloqning asosiy vazifasi, eng avvalo, uning tarbiyaviyligidir. Axloqiy tarbiya inson uchun, xalqona qilib aytganda, beshikdan to qabrgacha asqotadi. Tarbiya go‘dakdagi axloqiy mohiyatini yuzaga chiqarishi uchun, unda axloqiy yo‘nalmalarning, xulq va odatlarning shakllanishiga xizmat qiladi, axloqiy taqiqlarining mohiyatini bola ongiga singdiradi. Insonni qadriyatlarga yo‘naltirish ham axloqning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Chunki axloq qadriyatlar shaxsning kamol topishida katta rol o‘ynaydi, insonga ezgulikka qarab borish va yovuzlikdan qochish yo‘lini ko‘rsatadi.

## **2. Axloqning kelib chiqishi va axloqiy fikrlar taraqqiyoti.**

Axloqning kelib chiqishi. Inson paydo bo‘libdiki, u bilan birga axloq vujudga kelib, ravnaq topib kelmoqda. Avvalo, shuni aytish kerakki, inson va uning axloqi paydo bo‘lishi eng bahsli muammolardan biri hisoblanadi. Bu borada bir–biriga qarama–qarshi ikki qarash mavjud: diniy va dunyoviy. Diniy qarashga ko‘ra insonni Olloh yaratgan va uning axloqi ham uning ne‘matidir. Dunyoviy qarashga ko‘ra esa axloq insoniyat tarixiy taraqqiyotining ma’lum bir davrida yuzaga kelgan. Amaliy axloqning dastlabki namunalari bundan uch yarim ming yil avval dunyodagi birinchi yozuv bo‘lmish mix xatda somir (Shumer) giltaxtalariga yozilgan matnlarda aks etgan. Ularga ko‘ra somirliklar haqiqat va adolatni, qonun va tartibni adolat va erkinlikni, shafqat va muruvvatni yuksak baholaganlar hamda qadrlaganlar.

Axloq falsafasi nuqtai nazaridan qadimgi misr «mayyitlar kitobi» katta ahamiyatga ega. Misrliklar nazdida har bir inson o‘lgandan so‘ng,

oxiratda hisob beradi. «Paxatotepe o'g'itlari»dagi ba'zi nasihatlar yuksak badiiyati bilangina emas, balki quldorlik davri talablarini chetlab o'ta olgan umuminsoniy demokratik fikrlar tarzida, haqiqiy Donishmandlik va insonparvarlik namunasi sifatida ham hanuzgacha kishini hayratga soladi: «Qimmatbaho toshdek yashirindir oqilona so'z, holbuki uni don tuyayotgan cho'ridan topish mumkin».

«Avesto». Qadimgi turonzamin va eronzamindagi axloqiy tafakkur taraqqiyoti zardushtiylik dinining vujudga kelishi bilan bog'liq. Taxminan bundan 40 – 30 asr muqaddam yoyila boshlagan bu dinning qadimgi Xorazmda yaratilgan «Avesto» deb atalgan muqaddas kitobida asosiy axloqiy fazilatlar va illatlar sanab o'tiladi, talqin etiladi. Unda zardushtiylik ilohi Ahuramazda – ezgulik, Ahriman esa yovuzlik timsoli sifatida namoyon bo'ladi; ezgulik va yovuzlik, yorug'lik va zulmat, hayot va mamot o'rtasidagi abadiy kurashning ibtidosi aks etadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, «Avesto»da inson oliy jonzot tarzida talqin etiladi. Ayni paytda yeru ko'kdagi barcha ne'matlarni sevish, ardoqlash insonning muqaddas burchi hisoblanadi. Ozodalik, tozalik gigienik tushunchadan axloqiy va ilohiy tushuncha darajasiga ko'tariladi: suvni, atrof–muhitni toza tutish, jonivorlarga, xususan, itga uchi o'tkir suyak yoki qaynoq ovqat bermaslik – ularga nisbatan shafqatni anglatadi; inson shafqatli bo'lishi kerak. Bularning hammasi «Avesto»da ekologik axloqshunoslikning dastlabki kurtaklari ham mavjudligini ko'rsatadi. Xullas, «Avesto» yuqorida aytganimizdek, ajdodlarimizning axloqiy–estetik qomusi, qadimiy urf–odatlarimizning o'ziga xos, abadiyatga daxldor majmui sifatida qimmatlidir.

Vedachilik. Vedachilik axloqshunosligi qadimgi hind jamiyatini to‘rt tabaqa – varnaga bo‘ladi: brahmanlar (kohinlar), kshatriylar (harbiylar), vayshchilar (dehqonlar, kosiblar), shudralar (qullar). Mashhur «manu qonunlari» da yozilishicha, brahmanning mashg‘uloti – ta’lim berish, vedani o‘rganish, qurbonlik qilish, sadaqa ulashish va tuhfarlar olish; kshatriylar fuqarolarni qo‘riqlaydilar; vayshchilar chorva, tijorat, sudxo‘rlik va dehqonchilik bilan shug‘ullanadilar; shudralar esa ana shu uch ijtimoiy guruhga xizmat qiladi, vedachilik axloqiga ko‘ra, brahmanlar tug‘ma axloqiy yuksak odamlar, shudralar esa tug‘ma tuban axloq egalari hisoblanadi.

Buddachilik. Sidharta Gautama (miloddan avvalgi 567–487) ta’limotiga ko‘ra, dunyo iztirobga to‘la va eng muhim muammo ana shu iztiroblardan qutulishning yo‘lini topish.. Uning qisqacha bayoni shunday:

1. Bu dunyodagi hayot iztiroblarga to‘la.
2. Bu iztiroblarning sabablari bor.
3. Bu iztiroblarga barham berish mumkin.
4. Iztiroblarga barham berishga olib boradigan yo‘llar mavjud.

Konfutsiychilik. Konfutsiy ta’limotida asosiy axloqiy qonun, asosiy axloqiy tushuncha – jen (insoniylik). «lun yuy» («hikmatlar») kitobida shunday deyiladi: «kimki chin dildan insonni sevishga intilsa, u yovuzlik qilmaydi». «o‘zingga ep ko‘rmagan narsani 59 o‘zgaga munosib ko‘rma, shunda davlatda ham, oilada ham o‘zingga nisbatan yovlik his qilmaysan».demak, jen – ham jamiyat, ham oila a‘zolari orasidagi munosabatlarni belgilaydigan axloqiy tamoyil. U bilan «syao» – ota–onani, kattalarni hurmat qilish, «li» – urf–odat,

marosimlarni e'zozlash tushunchalari mustahkam bog'liq. Ayni paytda «li» tushunchasining ma'nosi ancha keng, u davlatga bo'lgan munosabatni ham o'z ichiga oladi. Xoqon (imperator) – osmon o'g'li, u osmon ostidagilarning barchasiga ota. Osmon ostidagi tartib–qoida esa quyidagicha: «podsho – podsho, ota–ota, mulozim–mulozim, o'g'il–o'g'il bo'lishi kerak».

Antik davr axloq falsafasi. Demokrit qadimgi yunon faylasuflari ichida birinchilardan bo'lib insonning ichki dunyosiga murojaat qiladi. U niyatni (xatti–harakat sababini) harakatdan ajratadi. Ayni paytda nomusli va nomussiz odamni nafaqat qilmishi, balki niyati orqali ham bilib olsa bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi. Demokrit hayo va ishonchni insonni qing'ir ishlardan qaytarib turuvchi kuch tarzida ta'riflaydi.

Suqrot (yunoncha sokratos, miloddan avvalgi 470–399 yillar) ning fikricha, polis bilan fuqaro o'z huquqlari jihatidan teng emas: ular ota bilan o'g'ilga o'xshaydi. Axloqning asosiy mohiyati – o'zgarmas va abadiy asl fazilat bo'lmish Donishmandlik. U axloqiy hatti harakat mezonini hisoblangan ilohiy yozmishga mos keladigan benuqson faoliyatdir. Axloqning manbai esa insondan tashqarida, ilohiydir.

Aflotun axloqshunosligining muhim xususiyati shundaki, unda axloqning asosi, axloqiy namuna sifatida ilohiylik olinadi. Faylasufning fikricha, kimda–kim Xudoning marhamatiga erishmoqchi ekan, unga iqtido qilmog'i, undan namuna olmog'i kerak; Xudo barcha narsalar uchun mezon; faqat Xudoga ishonuvchi va taqlid qiluvchi kishigina Donishmand bo'lishi mumkin.

Arastuning axloqiy qarashlari, asosan o'g'liga bag'ishlangan «nikomaxning axloq kitobi» va «evdemning axloq kitobi» hamda «katta axloq kitobi» risolalarida o'z aksini topgan. Arastu qadimgi yunon mutafakkirlari ichida birinchi bo'lib ixtiyor erkinligini axloqning asosi sifatida olib qaraydi va axloqiy fazilatni, Aflotunga qarama-qarshi o'laroq, ruhning tug'ma xususiyati emasligini, balki kasb etiladigan (hosil qilinadigan) sifat ekanini aytadi.

O'rta asrlarda axloq haqidagi qarashlar tarixi. Qur'oni Karimdagi bosh g'oya Alloh o'z bandalarining komillikka erishuvi bilan bog'liq. Zotan Alloh insonni komil bo'la olish imkoniyatlari bilan birga yaratadi. Umuman olganda, komillik imkoniyatlarining barchasi insonda go'zal axloq vositasida namoyon bo'ladi. Zero Islom dinining asosiy mazmun-mohiyati go'zal axloqdan iboratdir. «Niso» surasining 149-oyati karimasida shunday marhamat qilinadi: «(Ey mo'minlar), xoh oshkora, xoh yashirincha biron yaxshilik qilsangiz yoki biron yomonlikni avf qilib yuborsangiz (Olloh suygan bandalardan bo'lursiz)».

**Hadisi Sharif.** Muhammad alayhissalomning hayoti va faoliyatlaridan so'z yurituvchi, u kishining diniy-axloqiy ko'rsatmalaridan tashkil topgan manbalar hadislardir. Ular odatda hadisi sharif yoxud sunnat deb ataladi hamda Qur'ondan keyingi eng ulug' kitob hisoblanadi. Hadislar yozma emas; og'zaki manbalar bo'lgani uchun, ular mashhur muhaddis hadisshunos olimlar tomonidan yig'ilib, qiyosiy tarzda o'rganilgan va ishonchli hisoblanganlari, haqqoniylik darajalariga ko'ra, kitob holiga keltirilib, taqdim etilgan. Butun Islom olamida eng nufuzli manbalar hisoblangan oltita «Al-

jome' as sahih» mualliflari aynan bizning vatanimizdan chiqqan ulamolardir. Ular orasida Imom Ismoil al-Buxoriy (810-869) va uning shogirdi Abu Iso Muhammad at-Termiziy to'plagan hadislar bizda keng ommalashgan. Hadislarda namunaviy yoki boshqacha qilib aytganda, axloqiy–e'tiqodiy ideal masalasi bo'rtib ko'zga tashlanadi.

**Abu Nasr al-Forobiy** (870 – 950) Arastu izidan borib, falsafani ikkiga – nazariy va amaliyga bo'ladi hamda axloqshunoslikni amaliy falsafa tarkibiga kiritadi. Axloqiy muammolar uning «Baxtga erishuv yo'lini ko'rsatuvchi kitob», «Baxtga erishuv haqida», «Davlat arbobining hikmatlari», «Fozil odamlar shahri» singari asarlarida ko'tarilgan. Ularda inson baxti eng asosiy muammo sifatida o'rta tashlanadi. «Baxt – har bir inson intiladigan maqsad, zero, u muayyan komillik hisoblanadi», – deydi Forobiy. Ayni paytda alloma o'z qarashlarida fazilatga ham juda katta o'rin beradi.

O'rta asrlar axloqshunosligida raylik (eronlik) mutafakkir **Abu Bakr Ar-Roziy** (865 – 925) ta'limoti o'ziga xos o'rin egallaydi. Uning axloqiy qarashlari «Lazzat», «Falsafiy 60 hayot tarzi», «Ruhiy tabobat», «Baxt va farovonlik belgilari» singari kitoblarida aks etgan. Ar-Roziy axloqshunoslikni insonda xushxulqlikni tarbiyalash va badxulqlikni yo'qotish yo'llari hamda usullari haqidagi fan deb biladi; u kishini aql bilan ish ko'rishga, me'yorida lazzatlanishga, o'z ehtiroslarini jilovlab, lahzalik lazzatga umrini baxsh etmaslikka o'rgatadi.

Temuriylar davri axloqshunosligida **Husayn voiz Koshifiyning** (1440 – 1505) siymosi alohida diqqatga sazovor. Koshifiyning axloqshunoslikka doir eng mashhur asari «Axloqi Muhsiniy»dir.

Husayn Boyqaroning o‘g‘li, marv hokimi shahzoda Muhsin mirzoga bag‘ishlangan bu kitobda Koshifiy axloqshunoslikning juda ko‘p tushunchalariga sharh beradi, ularni jonli, hayotiy misollar, shuningdek, qadimgi hikoyatlar asosida talqin etadi.

«**Kalila va Dimna**» o‘zbek tiliga bir necha bor tarjima qilingan. Asarni o‘qiganda ko‘z oldimizda ikki dunyo namoyon bo‘ladi: biri – insof, adolat, diyonat, halollikka suyangan, axloqiy fazilatlarining tajassumi bo‘lmish insonlar dunyosi, ezgulik olami, ikkinchisi – yolg‘onni, qalloblikni, munofiqlikni, xudbinlikni kasb qilib olgan, illatlar tajassumi bo‘lgan odamlar dunyosi, yovuzlik dunyosi. Ana shu ezgulik va yovuzlik orasidagi kurash asarning o‘q tomirini tashkil etadi. Unda axloqiylik asl baxt, axloqsizlik inson uchun halokat girdobi ekani ajoyib hikoyatlarda, masallarda o‘z aksini topadi.

«**Qutadg‘u bilig**» 13000 misrani o‘z ichiga olgan axloqqa, siyosatshunoslikka doir monumental asar. Uni turkiy xalqlarning axloqiy qomusi deb atash mumkin. Kitobda ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, olijanoblik va tubanlik, halollik va haromlik singari tushunchalar batafsil qalamga olinadi. Ularning mohiyati obrazli, badiiy yuksak misralarda, she‘riy hikmatlarda, maqollarda ochib beriladi.

Kaykovusning «**Qobusnoma**» asarida ham ana shu jihatlarga e‘tibor qilinadi. Ayni paytda, «Qobusnoma» inson hayoti va faoliyatining deyarli barcha tomonlarini qamrab oluvchi o‘git – ko‘rsatmalardan iboratdir. Unda mehmonga borish, mehmon kutish, savdogarchilik odoblaridan tortib, chavgon o‘yini – sportchi odobigacha qalamga olinadi. Kaykovus axloqiylikka erishuv ikki xil –

tabiiy, tugʻma va tarbiya orqali roʻy berishini aytadi. Shu bilan birga axloqiy tarbiya har ikki holatda ham shart ekanini taʼkidlaydi. Sharqona pandnomalarning eng mashhuri, shubhasiz, shayx Muslihiddin Saʼdiyning (1184 – 1292) «Guliston» asaridir. Jahonda bu asar tarjima qilinmagan biror – bir madaniy til boʻlmasa kerak. Oʻzbek tiliga u birinchi marta buyuk oʻzbek mumtoz shoiri sayfi saroyi tomonidan xiv asrda tarjima qilingan. Saʼdiy, birinchi navbatda, odamlar qiyofasidagi ezgulik va yovuzlikning oʻzaro munosabatlarini ochib beradi. Oddiy muomala odobidan tortib, yuksak axloqiy tamoyillargacha ana shu munosabatlarni aks ettirishga xizmat qiladi. Temuriylar davrida yaratilgan eng ajoyib va oʻziga xos pandnomalardan biri, bu – Xondamirning (1481 – 1535) «Makorimul–axloq» («yaxshi xulqlar») asari. Uning oʻziga xosligi shundaki, undagi qalamga olingan barcha fazilatlar bir buyuk inson – Alisher Navoiy qiyofasi misolida ochib beriladi, talqin etiladi. Oʻrta asrlardan keyin ham pandnomalar yaratish anʼanalari davom etdi. Ana shundaylardan biri – oʻzbek mumtoz shoiri Gulxaniyning (XVIII asr ikkinchi yarmi – XIX asr boshlari) «Zarbulmasal» asari. Asarning yana bir oʻziga xosligi shundaki, uning asosiy qahramonlari – oʻz qiyofalarida axloqsizlik illatlarini mujassam etgan salbiy obrazlar. Ana shu usul bilan insonlarni insof, adolat va diyonatga, halollik va sofdillikka chorlaydi.

**Gʻayrizoʻravonlik.** Maʼlumki, yovuzlikni yoʻqotish, toʻgʻrirogʻi, kamaytirish, zaiflashtirish barcha davrlarda ham asosiy axloqiy muammo boʻlib kelgan. Qadimgi dunyodagi va oʻrta asrlardagi sharq mutafakkirlari yovuzlikni kuchsizlashtirishning yoʻli – unga qarshi yovuzlik bilan javob bermaslik, deb bilganlar. Bunday yondashuvni

qadimgi hindlar va xitoylarda (yo‘ga, jaynchilik, buddhachilik, daoichilik), nasroniylikdagi iso alayhissalom da’vatlarida, musulmonlikdagi tasavvuf namoyandalarida ko‘rish mumkin. Lekin bu davrlarda yovuzlikka yovuzlik bilan javob bermaslikni faqat sabr–toqat, Xudoga tashlab qo‘yish orqali amalga oshirish mumkin deb bilganlar. Turkiston ma’rifatchi–jadidlarining axloqiy qarashlari va keyingi davrlar o‘zbek axloqshunosligi. Turkiston ma’rifatchiligining dastlabki bosqichlarida axloqiy 61 g‘oyalar asosan badiiy va didaktik shakllarda o‘z aksini topdi. Shu jihatdan o‘zbek va tojik xalqlarining mutafakkiri Ahmad Donishning (1827 – 1897) «Navodir ul–vaqoe» asari diqqatga sazovor. Ahmad Donish o‘z asarlarida buxoro amirligi davlat tuzumini rossiya davlat tuzumi bilan solishtirib, uni isloh qilish lozimligini ta’kidlaydi. Ayni paytda, an’anaviy axloqiy tushunchalar bilan fikr yuritar ekan, u adolatni ham podsho–hukmdor shaxsiga, ham davlat tizimiga xos fazilat sifatida olib qaraydi. Qoraqalpoq xalqining buyuk mumtoz shoiri Berdaq (1827–1900) she’rlarida ham o‘sha davr axloqiy muhiti o‘z aksini topadi; u ham din peshvolarining o‘zlari oxiratga ishonmasliklarini, tovlamachilik, ochko‘zlik, tekinxo‘rlik illatlariga muhtalo bo‘lganliklarini va bu bilan Islom ildiziga bolta urayotganliklarini qattiq tanqid ostiga oladi.

**Abay.** Turkiston xalqlarini axloqiy yuksaklik va ma’rifat vositasida milliy o‘zligini anglash darajasiga ko‘tarishda qozoq xalqining buyuk farzandi Abay (1845–1908) axloqiy qarashlarining ahamiyati katta. Abay she’rlarida, shuningdek, «Iskandar», «Mas’ud» dostonlarida ezgulik, adolat, mardlik, shijoat singari fazilatlar o‘rnini

illatlar egallab borayotganidan, xalqning yaxshilik bilan yomonlikni farqlay olmaydigan darajaga tushib qolganidan faryod chekadi:


**Anbar Otin.** Turkiston ma'rifatchilarlarining yana bir yirik namoyandasi Dilshodning shogirdi Anbar Otindir (1870–1914). Uning axloqiy qarashlari lirik falsafiy she'rlarida va «qarolar falsafasi» (1910) risolasida o'z aksini topgan. «Qarolar falsafasi» asari asosan bir–birining ziddi bo'lmish ikki muammo – ijtimoiy adolat va ijtimoiy zulm tushunchalariga bag'ishlangan. Risola ko'p o'rinlarda falsafiy–majoziy talqinlardan iborat. Chunonchi, risola davomida, ayniqsa uning birinchi faslida, qora va oq ranglarning majoziy hamda botiniy mohiyati o'ziga xos tarzda ifodalanadi.

**Abdurauf Fitrat.** Turkiston ma'rifatchilari axloqshunosligida tom ma'nodagi milliy qahramonimiz Abdurauf Fitratning (1884–1938) «Najot yo'li» («rahbari najot») asari va, ayniqsa, «Oila yoki oila boshqarish tartiblari» (1914) kitobi alohida o'rin tutadi. Avvalo, shuni aytish kerakki, «Oila» o'zgacha bir shiddatli uslub bilan yozilgan. Unda ham tanqidiy ruh, ham da'vat ruhi kuchli.

### **3. Axloqiy tushunchalar va axloqiy madaniyat.**

Etika fanining asosiy kategoriyalari. Muhabbat bosh mezoni tushuncha sifatida deyarli barcha asosiy tushunchalarda va tamoyillarda o'z «hissa»siga ega. Shu jihatdan atoqli tasavvufshunos Najmiddin komilov: «juda ko'p irfoniy tushuncha–istilohlarning sharhi muhabbatga borib taqaladi», – der ekan, ayni haqiqatni aytadi. na ezgulikni, na yaxshilikni, na vatanparvarlikni, na insonparvarlikni muhabbatsiz tasavvur etib bo'lmaydi. 62 Nafrat tushunchasi, albatta, muhabbat singari keng qamrovli emas. U aksil muhabbat tarzida

namoyon bo‘ladi, ob’ektdan chetlashishni, undan begonalashishni taqozo etadi. Hazar, jirkanch hissi nafratning kundalik turmushdagi tor, «mayda» ko‘rinishidir. Nafratning ularga nisbatan «yirikligi» uning ijtimoiy hodisa sifatida mavjudligidir.



**Ezgulik va yovuzlik.** Asosiy tushunchalar orasidagi yana bir juftlik – ezgulik va yovuzlik; ezgulik axloqshunoslikdagi eng muhim kategoriyalardan. Ezgulik – insonga eng kuchli ma’naviy lazzat bag‘ishlaydigan, uni ijtimoiy shaxsga aylantirib, haqiqiy baxtga olib boruvchi fazilat; shaxsni komillikka, jamiyatni esa yuksak taraqqiyotga yetkazuvchi yuksak qadriyat. Ezgulik va uning ziddi yovuzlik odatiy, kundalik hayot mezonlari bilan o‘lchanmaydi, ular ham muhabbat singari qamrovli va ijtimoiylik xususiyatiga ega.

**Yaxshilik va yomonlik.** Ezgulik va yovuzlik haqida gap borganida, yaxshilik va yomonlik nima, bu ikki juftlik mazmunan bir emasmi, degan savol tug‘iladi. Bu tabiiy. Chunki hozirgacha bizga ma’lum o‘zbek tilidagi barcha axloqshunoslikka doir adabiyotlarda ezgulik va yovuzlik yaxshilik va yomonlikning Sinonimi tarzida taqdim etib kelingan. Bu ikki juftlik tushunchalar orasida qat’iy farq mavjud: ezgulik, ijtimoiylik xususiyatiga ega, yaxshilik esa unday emas. .

**Adolat.** Axloqshunoslikning yana bir asosiy tushunchasi – adolat. Uning ezgulik va yovuzlik hamda yaxshilik va yomonlikdan asosiy farqi shundaki, adolatning o‘zi biror–bir qadriyatni anglatmaydi, lekin qadriyatlar orasidagi nisbatni belgilaydi, ularni baholash maqomiga ega. Shu bois unda jamiyatni tartibga soluvchilik xususiyati bor; unda ham axloqiy, ham huquqiy talablar mujassamlashgan. Uni ma’lum ma’noda axloq sohasidagi miqdor o‘lchovchi ham deyish mumkin: u talab bilan taqdirlashni o‘lchab turadigan tarozidir. Adolat bor joyda ijtimoiy jabrga, beboshlikka yo‘l yo‘q.

**Burch.** Burch, mohiyatan, jamiyat, davlat va shaxslarga nisbatan muayyan individdagi munosabat, ular oldidagi majburiyat. U, yuqorida aytganimizdek, vijdon, e’tiqod, mas’uliyat kabi tushunchalar bilan mustahkam bog‘liq. Umuman, hayotda insonning har bir hatti–harakati zamirida burch tushunchasi – burchga sadoqat yoki xiyonat yotadi.

**Vijdon.** Axloqshunoslikning nihoyatda ta’sir doirasi keng tushunchalaridan biri vijdondir. Vijdon – zigmund Froyd ta’biri bilan aytganda, alo men, men ustidan nazorat o‘rnatib, uni boshqarib turuvchi ikkinchi bir, yuqori darajadagi men. Agar uyat hissi insonning tashqi, jamiyatga bog‘liqligidan kelib chiqsa, vijdon uning ichki o‘z–o‘ziga bog‘liqligini namoyon etadi. Vijdon ham axloqshunoslikning boshqa ba’zi asosiy tushunchalari kabi baholash xususiyatiga ega.

**Nomus.** Asosiy tushunchalardan yana biri – nomus. Nomus tushunchasi bir tomondan, burch bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi jihatdan, qadr–qimmat tushunchasiga aloqador. Zero, nomus mohiyatan shaxsning o‘z qadr–qimmatini anglab yetishi, shu qadr–qimmatning

jamiyat tomonidan tan olinishi yoki olinmasligiga nisbatan bo'ladigan munosabati bilan belgilanadi.

**Ideal.** Bir qaraganda, idealda ham baholash xususiyati mavjuddek tuyuladi. Lekin aslida u qiyoslashga asoslanadi. Antiqa tomoni shundaki, idealda nomavjud, xayoldagi insonga voqelikdagi real, mavjud inson, hayotdagi hodisalar qiyoslanadi, ya'ni bor narsa yo'q narsa bilan o'lchanadi. Hayotning ma'nosi. Mashhur alloma majididdin xavofiy, yashash uchun ovqatlanurlar, ovqatlanish uchun yashamaslar, degan hikmatni ko'p takrorlar ekan. Xo'sh, aslida inson nima uchun yashaydi? Yashashdan maqsad nima? Inson hayotining ma'nosi nimada? Har bir inson o'z umri mobaynida ana shu savollarga javob topishga urinadi va hayotining ma'nosini o'ziga xos tarzda tushunadi. Shu bois u axloqshunoslikning ancha murakkab tushunchalaridan hisoblanadi.

**Baxt.** Hayotning ma'nosi ideal bilan bog'liq bo'lgani kabi baxt atamasini ham hayotning ma'nosi tushunchasidan ajratib olingan holda tahlil etish mumkin emas. Zero, baxt inson o'z hayoti ma'nosini qay darajada tushungani va shu ma'nodan umri mobaynida qoniqish hosil qilib borishidan iboratdir.

**Axloqiy tamoyillar. Insonparvarlik** - Axloqiy tamoyillarning eng qadimiy va eng muhimlaridan biri – insonparvarlik. U – insonning yuksak ijtimoiy vazifasini belgilaydigan va barqaror etadigan g'oyalar, qarashlar va e'tiqodlar majmui, shaxs erki, qadr– qimmat, uning baxtli bo'lish huquqini talab etish imkonining mavjudligiga 63 yengilmas ishonch. Umumjahoniy dinlarning hammasida ham insonparvarlik g'oyalari ustuvor hisoblanadi.

**Erkparvarlik.** Erkparvarlik insonning eng oliy huquqi – erkin, ozod yashash huquqini himoya qilishi bilan muhimdir. Zero, erksiz inson – asir, erksiz millat – qul, erksiz mamlakat – mustamlaka. Erkparvarlik, avvalo, o‘z millati, o‘z vatani erki uchun, qolaversa, boshqa millatlar va vatanlar erki uchun kurashni hayotining maqsadi qilib qo‘ygan insonlar tamoyilidir.

**Vatanparvarlik.** Eng ma‘lum va mashhur tamoyil, bu – vatanparvarlik. U insonning o‘z vataniga muhabbatini, uni asrab–avaylashga bo‘lgan ishtiyoqini anglatuvchi axloqiy tushuncha. Uni ko‘pincha vatan dushmanlariga qarshi ma‘naviy–mafkuraviy qurol sifatidagina talqin etadilar. Aslida esa bu tamoyilning qamrovi ancha keng – u insonparvarlikning nisbatan muayyanlashgan shakli.

**Millatparvarlik.** Yana bir muhim axloqiy tamoyil, bu – millatparvarlik. U, ma‘lum ma‘noda, vatanparvarlik tamoyilining yanada muayyanlashgan shakli. Shu o‘rinda millatparvarlikni millatchilik bilan qorishtirib yubormaslik lozim. Millatchilik o‘z millatini ajratib olib, unga buyuklik maqomini berishga intilish bo‘lsa, millatparvarlik, boshqalarni kamsitmagan holda, o‘z millati ravnaqi uchun kurashish, bu yo‘lda, lozim bo‘lsa, o‘z hayotini ham fido qilish demakdir. **Mehnatsevarlik.** Mehnatsevarlik tamoyili mehnat jarayonida shaxsning o‘z–o‘zini namoyish etishiga, o‘zligini ro‘yobga chiqarishiga, o‘zgalar bilan munosabatlar o‘rnatishiga imkon yaratuvchi axloqiy fazilatdir. U insondan halollikni, intizomni, ishtiyoq va intilishni talab etadi, mehnatga nisbatan sub‘ektiv tarzda ijobiy munosabatni taqozo qiladi.

**Tinchlikparvarlik.** Bu axloqiy tamoyil ham insoniyat hayotida muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, tinchlikparvarlik urushning, qon to‘kishning har qanday ko‘rinishini inkor etadi, oddiy tinchliksevar shaxsning tinch–totuv yashashga bo‘lgan ijobiy munosabati bilangina chegaralanib qolmaydi, balki dushmanlik va tajovuzkorlikka qarshi kurashni, zarba berishni taqozo etadi. **Jo‘mardlik.** Jo‘mardlik tamoyili esa sharqda qadimdan mavjud. Yevropada uni altruizm nomi bilan Ogyust Kont ilmiy muomalaga kiritgan. U – kishidagi o‘z qavmdoshiga achinish hissidan, unga baxt va farovonlik tilash tuyg‘usidan kelib chiqadi, mohiyatan beminnat xayriyaga asoslanadi. O‘z manfaatidan o‘zga manfaatini ustun qo‘yib, «o‘z og‘zidagini o‘zga og‘ziga tutib» yashash jo‘mard insonning hayot tarziga aylanadi.

**Axloqiy me‘yorlar: Halollik.** Halollik vijdon, adolat va burch kabi axloqshunoslik mezoniy tushunchalari bilan bog‘liq, insoning o‘zgacha munosabati o‘zicha munosabatidek sof, pokiza bo‘lishini talab qilidigan axloqiy me‘yordir. Dastavval u diniy tushuncha sifatida vujudga kelib, har bir musulmonning yemak–ichmagi, jinsiy va iqtisodiy hatti harakatlari sifatini belgilab beruvchi shar‘iy me‘yor bo‘lib amal qilgan, uning ziddi – harom diniy nuqtai – nazardan salbiy hisoblangan hatti–harakatlarga nisbatan qo‘llanilgan.

**Rostgo‘ylik.** Rostgo‘ylik yoki to‘g‘ri so‘zlilik insonning haqiqatga intilishi bilan bog‘liq haqiqat esa doimo sinfiylik, partiyaviylik–mafkuraviylik va tarixiylik davriylikdan yuqori turadi. Haqiqatning ifodaviy shakllaridan biri rostgo‘ylikdir. Demak, rostgo‘ylik – insonning keyinchalik kasb etgan tabaqaviylik, – so‘z

ongiga, ruhiga singdirgan, ijtimoiy– hayotiy, davriy–tajribaviy xususiyat emas, balkining mohiyatida berilgan fazilat.

**Hayolilik.** Bu me'yor xulqiy go'zallikning asosiy belgilaridan hisoblanadi. U, garchand, bir qarashda, uyat hissi bilan o'xshash bo'lsa–da, aslida o'zini ko'proq andisha va iboga yaqin fazilat tarzida namoyon qiladi, unda axloqiy mohiyat estetik xususiyat – nafosat bilan uyg'unlashib ketadi.

**Xushfe'llilik,** shirinsuxanlilik, kamtarinlik, bosiqlik singari axloqiy hatti– harakatlar me'yoriylik nuqtai nazaridan g'oyat muhim. Chunki har bir jamiyat darajasi ma'lum ma'noda undagi fuqarolar muomala madaniyatining yuksakligi bilan ham belgilanadi.

**Xudbinlik.** U o'z individual ehtiyojlarini hamma narsadan yuqori qo'yadigan axloqiy sifat, illatni anglatuvchi tushuncha; biror – bir insonning moddiy–maishiy manfaatlarining boshqalarnikidan ustun qo'yilishini bildiruvchi manfaatparastlikdan 64 va o'z shaxsini mutlaqlashtirishiga qaratilgan shaxsiyatparastlikning ba'zi unsurlaridan iborat salbiy hatti–harakatlar majmu'idir.

**Shuxratparastlik.** Shuxratparastlik – shon–shuhrat ketidan quvadigan va bu yo'lda har qanday axloqsizlikdan qaytmaydigan insonlar toifasining xususiyati. Shuxratparast odam o'z nomining doimo atrofdagilar va jamiyat diqqat Markazida turishiga mashhurlikka, shov–shuvga, maqtovga ichki bir tiyiqsiz ehtiyoj sezadi. Axloqiy madaniyatning eng muhim unsurlaridan biri – muomala odobi. U, mohiyatan, o'zaro hamkorlikning shakllaridan biri. Inson zoti bir–biri bilan hamkorlik qilmasdan, o'zaro tajriba almashmasdan, bir–biriga ta'sir ko'rsatmasdan rasmana yashashi mumkin emas. Muomala

odam uchun ehtiyoj, zarurat, sog‘lom kishi usiz ruhan qiynaladi, kayfiyati tushib boradi. Muomala odobi boshqa kishilar qadr–qimmatini, izzatini joyiga qo‘yishni, an’anaviy axloqiy–me’yoriy talablarni bajarishni taqozo etadi. So‘zlash va tinglay bilish, suhbatlashish madaniyati muomalaning muhim jihatlari tashkil etadi. Shu bois muomala odobi o‘zini, eng avvalo, shirinsuxanlilik, kamsuqumlik, bosiqlik, xushfe’llilik singari axloqiy me’yorlarda namoyon qiladi.

**Kasbiy odob va etiket.** Axloqiy madaniyat yaqqol ko‘zga tashlanadigan munosabatlar ko‘rinishidan biri, bu – etiket. U ko‘proq insonning tashqi madaniyatini, o‘zaro munosabatlardagi o‘zini tutish qonun–qoidalarining bajarilishini boshqaradi. Agar muomala odobida inson o‘z munosabatlariga ijodiy yondashsa, ya’ni bir holatda bir necha xil muomala qilish imkoniga ega bo‘lsa, etiket muayyan holat uchun faqat bir xil qoidalashtirib qo‘yilgan xatti–harakatni taqozo etadi. Etiketning qamrovi keng, u, ma’lum ma’noda, xalqaro miqyosda qabul qilingan muomala qonun–qoidalarini o‘z ichiga oladi. Masalan, siyosiy arbob etiketi, mehmondorchilik etiketi va h.k.

**Nikoh va oila tushunchalari.** —Oila so‘zining lug‘aviy ma’nosi haqida olimlar turli fikrlari keltirib o‘tishgan. Masalan, F.Qilichev qadimda xalqimizda egarni ulovga mustahkamlovchi tasmani — “ayil” deb atashgani va er-xotinlik munosabatlari paydo bo‘la boshlagach, ularning jipsligini — “ayla”, ya’ni — “ayl” oila tarzida ifodalab nomlaganlar, 65 degan fikrga keladi<sup>1</sup>. Boshqa olimlarning fikricha, oila arabcha — “ayolmand” ma’nolarini anglatuvchi —oila so‘zidan kelib

---

<sup>1</sup> Қиличев Ф.Ж. Оила муносабатлари. // Ҳаёт ва қонун кутубхонаси. – Тошкент, 1997. – № 1. – Б. 44.

chiqqan<sup>2</sup>. Umuman — “oila” erkak va ayol qo‘shilishi natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy butunlikni anglatgan.

Nikoh – arabcha so‘z bo‘lib, — “qo‘shilish” degan ma‘noni anglatadi<sup>3</sup>. Ya‘ni, nikoh faqat jismoniy qo‘shilish emas, balki ma‘naviy mushtaraklik hamdir. Qadimda nikohning hilma-xil shakllari mavjud bo‘lib, hozirgi kunda monogamiya, poligamiya, endogamiya, ekzogamiya, panalual va levirat kabi shakllari saqlangan.

Monogamiya – bir nikohli oila, poligamiya – ko‘p nikohli oila, ekzogamiya – begonalar orasidagi nikoh shakli, endogamiya – qarindoshlardan tuzilgan nikoh, panalual – ikkinchi nikohda begona bilan tuzilgan nikoh, levirat – eri vafotidan so‘ng, uning akasi yoki ukasi bilan tuzilgan nikoh, sororat – xotini vafotidan so‘ng uning singlisi yoki opasi bilan tuzilgan nikoh kabilardir.

**Nikohning qonuniy va diniy asoslari.** Milliy qonunchiligimizdagi oilada er va xotinning teng huquqligi va ularning teng majburiyatga egaligi to‘g‘risidagi qoida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida e‘lon qilingan «O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi shaxsi va ijtimoiy mavkeidan qat‘iy nazar, qonun oldida tengdirlar» degan konstitutsiyaviy normadan kelib chiqadi. Qonunchilikka ko‘ra, nikoh natijasida vujudga kelgan er-xotinning teng huquqlari shaxsiy va mulkiylarga bo‘linadi. Shaxsiy huquqlar mulkiy huquqlardan farq qilib, iqtisodiy mazmunga ega emas, fuqarolarning shaxsiyati bilan bevosita bog‘liq va undan ajratib bo‘lmaydi.

---

<sup>2</sup> Сафаров О., Маҳмудов М. Оила маънавияти. – Т.: Маънавият, 1998. – Б. 11.

<sup>3</sup> Отахўжаев Ф. Никоҳ ва уни ҳуқуқий тартибга солиниши. – Т.: Адолат, 1995. – Б. 19.

Islomda ayolning huquqlari quyidagicha bo‘lishi kerak:

1. Ayollarga yaxshi muomalada bo‘lish, ularga nisbatan xushmuomala, shirin so‘z, muloyim munosabatda bo‘lish, nohaqlik va qo‘pollik qilmaslik kerak.

2. Ayollarni urmaslik. Qur’oni Karimning: «Xotinlarning itoatsizligidan qo‘rqsangiz, avvalo ularga nasihat qilingiz, so‘ng (bu ta’sir qilmasa,) ularni yotoqlarida tark yetingiz, so‘ngra (bu ham kor qilmasa,) ularni (majruh bo‘lmagudek darajada) uringiz. Ammo sizlarga itoat qilsalar, ularga qarshi (boshqa) yo‘l axtarmangizlar.

3. Islomda ayol va bolalarni o‘ldirish ma’n etilgan. Qur’oni Karimda shunday deyiladi: —(Yey insonlar), bolalaringizni qashshoqlikdan qo‘rqib o‘ldirmangiz, ularga ham, sizlarga ham Biz rizq berurmiz. Ularni o‘ldirish, shubhasiz, katta xatodir! («Al-Isro», 31).

4. Ayollarning ilm o‘rganishi. Ayol va erkak musulmonlarga ilm o‘rganmoq farzdir. Oila va nikoh haqidagi ilg‘or fikrlarning axloqiy ahamiyati. «Avesto» da nikoh munosabatlari oilaning, er va xotinning jamiyatdagi o‘rnini belgilagan. Oilaning buyuk timsoli sifati bu er-xotinning bir -biriga sadoqatli bo‘lishidir. «Avesto» jamiyatida oilaga bo‘lgan sadoqat naqadar ulug‘lanadiki, buning aksi o‘laroq oilaga xiyonat kechirilmagan, ayniqsa ayol hiyonati qabila – urug‘ g‘ururi paymol qilinishi bilan tenglashtirilgan. Bunday ayol o‘limga loyiq bo‘lgan. «Avesto» jamiyatida ayol kishining o‘rni oilada alohida talqin etilgan. Sog‘lom xotin nafaqat bola tug‘ish, uni tarbiyalash bilan, balki barcha yumushlarda eriga suyanch , madadkor bo‘lgan.«Avesto» jamiyatida oila muhim bir ijtimoiy funksiyani bajarganki, bunda jamiyatning mustahkamligi el yurt tinchligi va rivoji oilalarning

mustahkamligiga bog'liqligi e'tirof etilgan. «Avesto» jamiyatida 15 yoshga to'lgan bolalar oilada erkaklar safiga qo'shilgan va asosan 15 yoshdan keyin ular oila qurishi mumkin bo'lgan. 15 yoshga to'lgan yigitlar oilada, jamiyatda muhim ijtimoiy, siyosiy muammolarni hal etishda ishtirok etganlar. Ulardan ham mulohazalar eshitilib, turli xil usullar bilan sinovdan o'tqazilganlar. Qizlarning turmushga chiqish yoshi 12-13 yosh deb belgilangan. Qizlar turmushga chiqishida asosan jismoniy yetukligi inobatga olingan, bu sog'lom turmush tarzini shakllantirishda e'tibor berilganligidan dalolatdir. Ajdodlarimiz jamiyatda, oilada ayolning erlar bilan barobar huquqli bo'lishlariga intilishgan. «Avesto»ning 53-Yashtida Ahuramazdaning bu hususdagi farzlariyu Zardusht pandlari keltirilgan. Yashtlardagi muhofazalarga qaraganda, jamiyat hayotining biron sohasida xotin-qizlar xuquqi cheklangan emas. Zardushtiylikda ko'pxotinlik qat'iy man etilgan. Ayni paytda hayotni buydoqo'tkazish ham qoralangan. Balog'atga yetgan qiz bola ota-ona, jamoaning ra'yini pisand qilmay, o'zidan zuryod qoldirishni istamay, qasddan turmushga chiqmay umrguzaronlik qilib yursa, u qopga solinib, 25 darra kaltaklanish bilan jazolangan; yigit zurriyot qoldirish qobiliyati bo'la turib, ataylab uylanmay yursa, har doim temir kamar bog'lab yurishga majbur etilgan. Bundan tashqari, «Avesto»da oila qurish, jufti halol tanlashda shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymaslik, ota-ona, keksalar maslahatiga quloq tutish kerakligi ham ta'kidlangan. Abdurauf Fitratning — «Oila» asarida. «Oila» asarida oilaviy xayotning islohotidan bahs yuritilib, adib najot yo'llarini axtaradi. Fitratning oilaga nisbatan qarashlari zaminini Qur'onda shu masala bo'yicha olg'a surilgan fikr va g'oyalar


tashkil etadi. Oila asosini to‘g‘ri qurmasdan va yosh avlodni to‘laqonli to‘g‘ri yo‘lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini tarqqiyot sari yo‘naltirish mumkin emas. Oxir oqibatda millat taqdiri uning oilasining xolatiga bog‘liq. Oila, Fitratning talqinida, uch muhim komponentdan iborat:

- 1) Er.
- 2) Xotin.
- 3) Farzandlar.

Ana shu uch komponentning har biri nozik, spetsefik jihatlarga ega. Chunki, er va xotin uchun oila qurish asosiy muammo bo‘lishi bilan birga, bu masala o‘zining muxim qirralariga xam ega.

## **JAMIYAT HAYOTIDAGI O‘RNI**

### **ETIKA → JAMIYAT**



### **Dars o‘tish metodi**

**Dars maqsadi:**

### Ta'limiy:

- Talabalarga **axloq, vijdon, mas'ululiyat** tushunchalarini chuqur anglatish
- Etik muammolarni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish

### Tarbiyaviy:

- Halollik, adolat, insoniylik qadriyatlarini mustahkamlash
- Fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirish

### Rivojlantiruvchi:



- Tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish
- O'z fikrini asoslab gapirishni o'rgatish

### Kerakli jihozlar:

- Slayd yoki doska
- Tarqatma materiallar (vaziyatlar yozilgan kartochkalar)
- Markerlar
- Baholash varaqalari

## DARS JARAYONI

<p><b>I. Tashkiliy qism (5 daqiqa)</b></p> <ul style="list-style-type: none"><li>• Salomlashish</li><li>• Davomatni aniqlash</li><li>• Talabalarni 4 guruhga bo'lish:<ol style="list-style-type: none"><li>1. <b>Adolat</b></li><li>2. <b>Vijdon</b></li><li>3. <b>Mas'uliyat</b></li><li>4. <b>Halollik</b></li></ol></li></ul>	<p><b>II. Kirish motivatsiyasi (10 daqiqa)</b></p> <p>⚡ “Qizg'in savol” metodi: Slaydda savol: “Agar hech kim bilmasa, noto'g'ri ish qilish mumkinmi?”</p> <p>Talabalar:</p> <ul style="list-style-type: none"><li>• Roziman / Qarshiman — deb ikki tomonga bo'linadi</li><li>• 2–3 kishi o'z fikrini asoslaydi</li></ul> <p>O'qituvchi xulosa qiladi: Demak, bugun biz <b>insonni ichidan boshqaradigan axloqiy mezonlar</b> haqida gaplashamiz.</p>
--	---

<b>III. Asosiy qism (50 daqiqa)</b>	
<p> <b>1-metod: “Axloqiy dilemma” (20 daqiqa)</b></p> <p>Har bir guruhga <b>vaziyat yozilgan kartochka</b> beriladi:</p> <p>1-vaziyat: Do‘sting korrupsiya yo‘li bilan ishga kirdi. Sen bilasan. Nima qilasan?</p> <p>2-vaziyat: Imtihonda sheriging ko‘chirib o‘tdi. U oilaviy muammolari borligini aytadi.</p> <p>3-vaziyat: Ish joyingda xato qilding, lekin uni boshqaga ag‘darish mumkin.</p> <p>4-vaziyat: Topib olingan qimmatbaho telefon.</p> <p>Topshiriq:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Muammoni muhokama qilish</li> <li>• Qaror qabul qilish</li> <li>• <b>Axloqiy asosini izohlash</b></li> </ul> <p>Har guruh 3 daqiqa himoya qiladi.</p>	
<p> <b>2-metod: “Axloqiy sud” (20 daqiqa)</b></p> <p>Mavzu: “Topib olingan hamyon egasiga qaytarilmadi — bu jinoyatmi yoki axloqsizlikmi?”</p> <p>Rollar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Sudya</li> <li>• Prokuror</li> <li>• Advokat</li> <li>• Ayblanuvchi</li> <li>• Guvohlar</li> </ul> <p>Tomoshabinlar — ekspertlar</p> <p>So‘ng:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Ovoz berish</li> <li>• Muhokama: Qonun va axloq har doim ham bir xilmi?</li> </ul>	<p><b>3-metod: “Agar men bo‘lsam...” (10 daqiqa)</b></p> <p>Savollar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Agar siz rahbar bo‘lsangiz va do‘stingiz xato qilsa?</li> <li>• Agar manfaat va vijdon to‘qnashsa?</li> </ul> <p>Talabalar yozma yoki og‘zaki javob beradi.</p>

<p><b>IV. Mustahkamlash (10 daqiqa)</b>  <b>“Qadriyatlar auksioni”</b>  Qadriyatlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Halollik</li> <li>• Boylik</li> <li>• Obro‘</li> <li>• Sog‘liq</li> <li>• Vijdon</li> <li>• Mansab</li> <li>• Erkinlik</li> </ul> <p>Har guruhga 100 ball.  Ular o‘z qadriyatlariga “sotib oladi”.</p> <p>Muhokama:  Nega aynan shuni tanladingiz?</p>	<p><b>V. Baholash (5 daqiqa)</b>  Baholash mezonlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Faollik — 2 ball</li> <li>• Fikr asoslash — 2 ball</li> <li>• Guruh ishidagi ishtirok — 2 ball</li> <li>• Mantiqiy xulosa — 2 ball</li> <li>• Madaniyatli munozara — 2 ball</li> </ul> <p>👉 Jami: 10 ball</p>
<p><b>VI. Yakuniy xulosa (5 daqiqa)</b>  O‘qituvchi xulosasi:  Axloq — insonni nazorat qiladigan ichki qonundir. Jamiyat qonun bilan, inson esa <b>vijdon bilan</b> buyuk bo‘ladi.</p>	<p><b>VII. Uyga vazifa:</b>  1-variant:  “Zamonaviy yoshlar axloqi: muammo va yechimlar” — esse (1–2 bet)  2-variant:  Bir real hayotiy axloqiy muammo yozib kelish va tahlil qilish</p>

### Nazorat savollari:

1. Etika fanining predmeti nima?
2. Jamiyat hyotida axloqiy tushunchalarning o‘rni qanday?

3. Axloqiy madaniyat deganda nimani tushunasiz?
4. Nikohning huquqiy va diniy asoslarini bilasizmi?
5. Etiket nima va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati qanday?

### **Test savollari:**

#### **1. Etika fani nimani o‘rganadi?**

- A) Inson psixologiyasini
- B) Inson axloqi va xulq-atvorini
- C) Jamiyat tarixini
- D) Davlat qonunlarini

#### **2. Etika fanining predmeti nima?**

- A) Iqtisodiy munosabatlar
- B) Siyosiy qarashlar
- C) Insonning axloqiy xatti-harakati
- D) Huquqiy normalar

#### **3. Quyidagilardan qaysi biri etikaning asosiy tushunchalariga kiradi?**

- A) Boylik
- B) Mansab
- C) Vijdon
- D) Texnologiya

#### **4. Yaxshilik va yomonlik qaysi fan tomonidan o‘rganiladi?**

- A) Huquq
- B) Etika
- C) Tarix
- D) Sotsiologiya

#### **5. Etika jamiyatda qanday vazifani bajaradi?**

- A) Faqat nazariy bilim beradi
- B) Insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi
- C) Davlatni boshqaradi
- D) Fanlarni nazorat qiladi

**6. “Vijdon” tushunchasi nimani bildiradi?**

- A) Qonunga bo‘ysunish
- B) Insonning ichki axloqiy nazorati
- C) Jamiyat fikri
- D) Majburiyat

**7. Kasbiy etika nimani anglatadi?**

- A) Kasbni o‘rganish qoidalari
- B) Kasbga oid axloqiy me‘yorlar
- C) Ish tartibi
- D) Mehnat qonunlari

**8. Quyidagilardan qaysi biri axloqiy qadriyat hisoblanadi?**

- A) Pul
- B) Mansab
- C) Adolat
- D) Texnika

**9. Etikaning tarbiyadagi ahamiyati nimada?**

- A) Faqat bilim beradi
- B) Ma‘naviyatli shaxsni tarbiyalaydi
- C) Qonunlarni o‘rgatadi
- D) Kasb tanlashga yordam beradi

**10. Etika nimaning asosi hisoblanadi?**

- A) Texnika taraqqiyotining
- B) Ma‘naviyat va madaniyatning
- C) Iqtisodning
- D) Siyosatning

# ESTETIKA FANINING PREDMETI VA JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI

## ESTETIKA FANINING TUZILMASI

- ➔ Estetik Did
- ➔ San'at Şakllari
- ➔ Go'zallik Nazariyalari

## ASOSIY TUSHUNCHALAR

- Go'zallik
- Xunuklik
- Kulgi (komik)
- Ulug'vorlik
- Fojeavivlik

## FAN PREDMETI

- Go'zallik va Go'zallik Qonuniyatlari
- San'at Asarlari
- Did va Estetik Ideal

# ESTETIKA

## JAMIYATDAGI O'RNI

- Did Tarbiyasi
- Madaniyatni Rivojlantirish
- Estetik Kõnuniyatlar

## JAMIYATDAGI AHAMIYATI

- ➔ Estetik Zavq
- ➔ Madaniy-Ma'naviy Yuksalish
- ➔ Ijodiy Fikr

## JAMIYATDAGI O'RNI

- Did Tarbiyasi
- Madaniyatni Rivojlantirish
- Estetik Kõnuniyatlar

## XULOSA

San'at

Madaniyat

Go'zallik

Ijod

## 2- mavzu. Estetika nazariyasi.

### Reja:

1. Estetika fanining obekti va falsafiy mohiyati.
2. Estetikaning asosiy kategoriyalari.
3. San'at va uning turlari
4. Estetik tarbiya, uning omillari va vositalari. "Ommaviy madaniyat"ning yoshlar estetik tarbiyasiga ta'siri.

*Tayanch so'zlar: Estetika, go'zallik falsafasi, san'at falsafasi, estetik munosabat, estetik anglash, estetik xissiyot, estetik faoliyat, estetik mushohada, estetik did, estetik baho, estetik ideal, estetik kategoriya, go'zallik, hunuklik, ulug'vorlik, tubanlik, fojaviylik, kulgulilik, tabiat estetikasi, ekoestetika, texnogen sivilizatsiya, san'at, epos, lirika, drama, arxaik san'at, an'naviy san'at, zamonaviy san'at, tasviriy san'at, xalq amaliy san'ati, dizayn, tarbiya vositalari, turmush estetikasi.*

**ESTETIKA → GO'ZALLIKNI ANGLASH → SAN'AT → MA'NAVIYAT → MADANIYATLI INSON**

### 1. Estetikaning fanining ob'ekti va falsafiy mohiyati.

Estetika yoxud nafosatshunoslik eng qadimgi fanlardan biri. Uning tarixi ikki yarim-uch ming yillik vaqtni o'z ichiga oladi. Biroq u o'zining hozirgi nomini XVIII asrda olgan. Ungacha bu fanning asosiy muammosi bo'lmish go'zallik va san'at haqidagi mulohazalar har xil san'at turlariga bag'ishlangan risolalarda, falsafa hamda ilohiyot borasidagi asarlarda o'z aksini topgan edi. «Estetika» atamasini birinchi bo'lib buyuk olmon faylasufi Aleksandr Gotlib Baumgarten (Baumgarten / 1714-1762) ilmiy muomalaga kiritgan. Endi «Estetika» fanining mohiyatini anglatadigan «san'at falsafasi» va «go'zallik

falsafasi» iboralariga to'xtalamiz. Estetika tarixida birinchi ibora tarafdorlari ko'pchilikni tashkil etadi.

Lekin, yuqorida aytib o'tganimizdek, san'at bu fanning yagona tadqiqot ob'ekti emas. Hozirgi paytda texnika estetikasi va uning amaliyotdagi sohasi dizayn, atrof-muhitni go'zallashtirish, tabiatdagi nafosat borasidagi muammolar bilan ham shu fanimiz shug'ullanadi. Demak, uning qamrovini san'atning o'zi bilangina chegaralab qo'yishga haqqimiz yo'q. Zero bugungi kunda inson o'zini o'rab turgan barcha narsahodisalarning go'zal bo'lishini, har qadamda nafosatni his etishni istaydi. San'at estetikaning ob'ekti sifatida o'ziga xos olam. Unda estetik xususiyatlar bo'rtib ko'zga tashlanadi. Shunga ko'ra, uni nafosatga burkangan ijtimoiy hodisa deyish mumkin. San'at hayotni in'ikos ettirar ekan, insonning o'zini o'ziga ko'rsatuvchi ulkan ko'zgu vazifasini o'taydi. U insonni o'rgatadi, da'vat etadi, go'zallashtiradi. Bu vazifalarni bajarishda estetika san'atning ko'makchisi, yetakchisi hisoblanadi.



Estetika – falsafiy fanlardan biri. Falsafa barcha tabiiy va ijtimoiy ilmlar erishgan yutuqlarni o‘z qamroviga olib, ulardan umumiy xulosalar chiqarib, shular asosida insoniyatni haqiqat tomon yetaklaydi. Shu bois tafakkurni falsafaning predmeti deb atash maqsadga muvofiq. Estetika esa falsafiy fan sifatida barcha san’atshunoslik fanlari erishgan yutuqlardan umumiy xulosalar chiqarib, shu xulosalar asosida insonni go‘zallik orqali haqiqatga yetishtirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, estetika ishlab chiqqan qonun– qoidalar barcha san’atshunoslik fanlari uchun umumiylik xususiyatiga ega.

Etika. Bu ikkala fan shu qadar bir–biriga yaqinki, hatto ba’zi davrlarda ular yetarli darajada o‘zaro chegaralanmagan. Chunki insonning xatti–harakati va niyati ko‘pincha ham axloqiylikka, ham nafosatga tegishli bo‘ladi, ya’ni muayyan ijobiy faoliyat ham ezgulik, ham nafosat xususiyatlarini o‘zida birvarakay mujassam qiladi. Shu sababli «Avesto», «Bibliyo» va «Qur’on» kabi muqaddas kitoblarda, Suqrot, Aflotun, Forobiy singari qadimgi faylasuflar ta’limotlarida axloqiylikni – ichki go‘zallik, nafosatni – tashqi go‘zallik tarzida talqin etganlar.

Psixologiya. Ma’lumki, insonning ruhiy hayotini o‘rganar ekan, ruhshunoslik, hissiyotlar masalasiga katta o‘rin beradi. Go‘zallikni, san’at asarini yaratish va idrok etish ham ma’lum ma’noda hissiyotlar bilan bog‘liq. Masalan, oddiy harsang tosh kishida alohida bir hissiy taassurot uyg‘otmaydi. Lekin toshga haykaltarosh qo‘l urganidan so‘ng, undan hayot nafasi, insoniy hissiyotlar ufura boshlaydi. Sotsiologiya fani bilan aloqadorligi. Ma’lumki, har bir san’at asari alohida inson shaxsiga e’tibor qilgani holda, jamiyatni ijtimoiy munosabatlar tizimi sifatida badiiy tadqiq etadi. Hatto inson va jamiyat bevosita aks etmagan manzara janridagi asarda ham ijtimoiylik jamiyat a’zosi–muallif qarashlarining bilvosita in’ikosi bo‘lmish uslubda o‘zini ko‘rsatadi. Zero asar muallifi hech qachon o‘zi mansub jamiyatdan chetda «tomoshabin» bo‘lib turolmaydi.

Dinshunoslik fani bilan aloqadorligi. Din va san’at doimo bir–birini to‘ldirib keladi va ko‘p hollarda biri boshqasi uchun yashash sharti bo‘lib maydonga chiqadi. Buning ustiga, har bir umumjahoniy dinning «o‘z tasarrufidagi» san’at turlari bor: buddhachilik uchun–

haykaltaroshlik, nasroniylik uchun–tasviriy san’at, musulmonchilik uchun–badiiy adabiyot. Shuningdek, barcha umumjahoniy dinlar o‘z ibodatxonalarini taqozo etadi. Ibodatxonalarning esa me’morlik san’ati bilan bog‘liqligi hammamizga ma’lum.

Pedagogika fani bilan aloqadorligi. Ularning aloqadorligi tarbiya muammolarini hal qilish borasida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Chunki pedagogika ham ma’lum ma’noda nafosat tarbiyasi bilan shug‘ullanadi.

Estetikaning amaliy ahamiyati. Har bir fanning inson va jamiyat hayotida o‘ziga xos amaliy ahamiyati bor: estetika ham bundan mustasno emas. Avvalo, u kundalik hayotimizda nafosat tarbiyasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish borasida katta ahamiyatga ega. Erkin, demokratik jamiyatimizning har bir a‘zosi go‘zallikni chuqur his etadigan, uni asraydigan nafis did egalari bo‘lishlari lozim. Haqiqiy badiiy asar bilan saviyasi past asarni farqlay bilishlari, «ommaviychilik san’ati»ni rad qila olishlari lozim. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda, estetika jamiyatning barcha a‘zolari uchun muhim ahamiyatga ega.

Estetik munosabat. Gap shundaki, estetik munosabatdan boshqa barcha munosabat turlari inson «aqlini taniganidan so‘ng», ya’ni go‘daklik davridan o‘tgandan keyin voqe bo‘ladi. Masalan, go‘dak hali uyat hissini bilmaydi, unda axloqiy munosabat hattoki ibtidoiy darajada ham shakllanmagan, xohlagan vaqtida, to‘g‘ri kelgan joyda tibiiy ehtiyojni qondiradi. Lekin u beshikda yotar ekan, tushib turgan olachanoq quyosh nuridan quvonadi, uni kuzatadi, u bilan o‘ynagisi keladi yoki beshikka osig‘liq rangli o‘yinchoqdan zavqlanadi. Estetik anglash va uning tuzilmasi. Estetik anglash inson ruhiyatida o‘ziga xos, chuqur ijobiy ruhiy o‘zgarishlarni vujudga keltiradigan estetik holat. U estetik

faoliyatining boshlanishidan avval insonni unga tayyorlovchi hodisa sifatida muhim: usiz estetik faoliyatning ro'y berishi mumkin emas. Estetik anglashning murakkab hodisa ekani unda estetik ehtiyoj, turli hislar va ma'naviy andozalarning har bir shaxs uchun alohida ruhiy evrilish tarzida namoyon bo'lishi bilan bog'liq; bu evrilish kuchli va asosan his hayajon, ehtirosli kechinmalar asosida vujudga keladi.

Estetik ehtiyoj. Estetik anglash va shu asosdagi faoliyat jarayonining ibtidosi estetik ehtiyojga borib taqaladi. Estetik ehtiyoj inson hayotida ro'y beradigan barcha estetik hodisalarning asosi sifatida ham tabiiy–biologik, ham ijtimoiy–ma'naviy mohiyatga ega; «go'zal nafs», nafosatga tashnalik, insonda estetik hissiyotni qo'zg'atish xususiyatini saqlab qolgan holda, keyinchalik uning butun umri mobaynida takomillashib boradi estetik muhokama, estetik baho, estetik did va estetik idealning shakllanishiga xizmat qiladi. Estetik hissiyot. Ko'pincha adabiyotlarda estetik hissiyot «estetik tuyg'u» so'zida, birlik shaklida beriladi. Goh estetik kechinmaning, goh estetik hayajonning sinonimi tarzida talqin qilinadi. Bizningcha, bu unchalik to'g'ri emas. Chunki hayajon ham, kechinma ham bitta tuyg'udan emas, tuyg'ular silsilasidan iborat bo'ladi, shu sababdan uni ko'plikda hislar yoki hissiyot shaklida qo'llash maqsadga muvofiq. Endi estetik hissiyotni tashkil etadigan hislarning ba'zilarini qisqacha ko'rib o'taylik.

Estetik qiziqish. Estetik hissiyotning ibtidosidagi tuyg'ulardan biri estetik qiziqish hisoblanadi. Ma'lumki, qiziqish hissi, sog'inch va qo'msashdan farqi o'laroq o'tmishda ro'y bergan hodisani emas, balki ko'p hollarda kelajakda, tez muddat ichida ro'y berishi lozim bo'lgan

voqelikni nazarda tutadi, unga intiladi; intilish jarayoni esa »uchrashuv«ga tayyorgarlik degani. Estetik qiziqish sub'ektning ob'ekt haqida, hali u bilan yuzma–yuz kelmasdan turib, muayyan bir umumiy tushunchaga ega bo'lishini, uni idrok etishga o'zini hozirlashini taqozo etadi.

Estetik mushohada. Odatda biz «mushohada» deganimizda «kuzatish» so'zining sinonimini tushunamiz. Aslida esa bunday emas: kuzatish, falsafiy qilib aytganda, bilish munosabatining tajribaviy asosi, u ob'ektga yunaltirilgan bo'lib, qo'yilgan maqsad va ilmiy bilim mantiqi tomonidan boshqarib, tuzatilib boriladi, unga o'zgartirishlar kiritib turiladi, ya'ni u maqsad asosida ish ko'radigan fikriy faoliyat.

Estetik baho. Qadriyat deganda biz, odatda shaxs, millat, jamiyat tomonidan qadrlanadigan ma'naviy—moddiy ob'ektlarni tushunamiz. Har qanday qadriyat yoki qadriyat darajasiga ko'tarilgan har bir ob'ekt inson tomonidan baholanmay qolmaydi. Qadriyatlar sohaviylik tabiatiga ega (axloqiy, estetik, diniy va h.k.) bo'lishi barobarida darajalarga bo'linishi bilan ham ajralib turadi.

Estetik qadriyat. Bir yoki bir necha estetik xususiyatni o'zida jam qilgan qadriyatni biz estetik qadriyat deymiz. Estetik qadriyatlar inson va jamiyat hayotida muhim o'rin egallaydi. Go'zallik, ulug'vorlik, Registon me'morlik majmui, «Shashmaqom», Navoiyning «Xamsa»si, Rafaelning rang tasviri, Shekspir asarlari—bular hammasi estetik qadriyatlardir. Biz ular haqida fikr yuritar ekanmiz, odatda «bebaho» degan so'zni ishlatamiz, bu bilan biz ularning qadri nihoyatda balandligini, oddiy–kundalik baholash mezonlaridan yuksak turishini ta'kidlaymiz. Estetik did. Estetik did tushunchasining o'ziga xosligi

shundaki, u bir tomondan, idrok, fahm, farosat kabi ildizi aqlga borib taqalsa, ikkinchidan, o‘zining ehtiros, his— hayajon, sub’ektiv baxolash xususiyati bilan ulardan ajralib turadi. Shu sababli biz did haqida gapirganimizda odatda, estetik did deganda – insondagi go‘zallik, ulug‘vorlik, fojaviylik singari estetik xususiyatlarni, umuman, nafosatni idrok etish qobiliyatini nazarda tutiladi.

Estetik ideal. Ideal deganda, biz odatda muayyan bir inson shaxsi yoki ijtimoiy– tarixiy hodisaning boshqalar tomonidan yuksak namuna, oliy maqsad hamda komillik tarzida qabul qilinishini nazarda tutamiz. U tasavvurdagi shaxs yoki jamiyatni real shaxslar va mavjud jamiyatdan yuqori qo‘yish, ya’ni ideallashtirish bilan bog‘liq.

### 1. Estetikaning asosiy kategoriyalari.

**Estetik kategoriyalar** — bu insonning borliqni go‘zallik nuqtai nazaridan baholash uchun ishlatadigan asosiy tushunchalar.

<b>Kategoriya</b>	<b>Qisqacha ta’rif</b>
<b>Go‘zallik</b>	Insonda zavq va hayrat uyg‘otadigan mukammallik
<b>Xunuklik</b>	Go‘zallikka zid bo‘lgan, salbiy estetik holat
<b>Ulug‘vorlik</b>	Buyuklik, qudrat, hayrat uyg‘otuvchi holat
<b>Pastkashlik</b>	Ulug‘vorlikka zid bo‘lgan tubanlik
<b>Fojeaviylik</b>	Og‘ir, qayg‘uli, ammo ma’noli hayotiy to‘qnashuv

Go‘zallik. «Go‘zallik»ning tugal ilmiy ta’rifi haqida biror–bir qat’iy fikr mavjud emas. Biroq, go‘zallikning idrok etilishi, tabiatda namoyon bo‘lishi, san’atda aks etishi hamda uning jamiyat rivojiga ta’siri haqida bildirilgan fikrlar, ilgari surilgan g‘oyalar, yaratilgan ta’limotlar o‘zining salmog‘i bilan ahamiyatlidir. Inson va uning ruhiy– jismoniy, axloqiy–estetik faoliyati, tabiat va undagi hodisalar, jamiyat

va unda ro'y berayotgan ijtimoiy–ma'naviy, siyosiy–iqtisodiy jarayonlar go'zallikka yondoshuvning tarixan tarkib topgan asosiy obektlaridir. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, go'zallik haqidagi qarashlar va nazariyalar markaziga «Go'zallik nima?» degan savol qo'yiladi–yu, ammo ularning aksariyatida «Nima go'zal?» degan javobni ko'ramiz. Shuning uchun ham odatda, go'zallik ikki omil asosida yuzaga keladi. Bular: inson tafakkuri va mehnatining mahsuli natijasida yaratiladigan go'zallik; inson tafakkuridan tashqarida, insonga bog'liq bo'lmagan xolda yuzaga keladigan go'zallik. Birinchisida aql, ruh va xissiyot ustuvor bo'lsa, ikkinchisida makon va zamon salmoqli o'rinni egallaydi. Shu o'rinda go'zallik tushunchasi «chiroyli», «ko'rkam», «nafis», «jozibador», «maftunkor», «latofatli» kabi tushunchalarga nisbatan kengqamrovli va ustuvor ekanligini alohida ta'kidlash joiz. Ayniqsa, go'zallik bilan kundalik turmushimizda tez tez tilga olinadigan «chiroylilik» tushunchasi orasida muayyan tafovutlar mavjud.

Ulug'vorlik va tubanlik. Ingliz nafosatshunosi E.Byork go'zallikni ulug'vorlik bilan qiyoslaydi va ularni alohida tushunchalar sifatida tadqiq etadi. I.Kant esa go'zallik va ulug'vorlikni uyg'unlikda rivojlanuvchi tushunchalar deb hisoblaydi. Ulardan farqli o'laroq, Xegel, ulug'vorlikni go'zallikning bir ko'rinishi, ulug'vorlik – zohiriy go'zallikning botiniy go'zallikka aylanishi, deb tushuntiradi. Ulug'vorlik – insonning narsa hodislarga estetik va axloqiy mezonlar bilan yondashishi va ulardan yuksak hayratlanish tuyg'usini hosil qiluvchi estetik hissiyot majmuidir. Ulug'vorlikning ko'lami go'zallik ko'lami kabi cheksizdir. Tabiatdagi ulug'vorlik cheksiz osmon,

purviqor tog‘lar, yuksak cho‘qqilar, moviy dengizlar, ming yillik chinorlar, shuningdek, vulqon va chaqmoq singari tabiat hodisalarida namoyon bo‘ladi. Ular uzoqdan kishilarda hech qanday hayajonli taassurot qoldirmaydi. Biroq, ularga yaqinlashganimiz sari ruhiyatimizni hayajon, jo‘shqinlik egallay boshlaydi, ularni butunligicha ko‘z bilan qamrab ololmaslik darajisiga yetganda esa bu hayajon yanada ortadi. Tabiatdagi ulug‘vorlik matematik va dinamik xususiyatga ega. Matematik xususiyatida xajm, dinamik xususiyatida kuch ustuvor ahamiyatga kasb etadi. Biroq, ikkala xususiyat ham insonda kuchli hayrat va hayratlanish tuyg‘ularini paydo qiladi. Jamiyatdagi ulug‘vorlik umuminsoniy qadriyatlar, qahramonlik, jasorat, xalqparvarlik, bunyodkorlik tushunchalari bilan uyg‘unlashadi. Davlatda barqarorlik, jamiyatda adolat ustuvorligi, shaxsning erkin va hurfikrlilik asosida faoliyat olib borishi ijtimoiy tizimning ulug‘vorligini aks ettiradi.

Fojeaviylik va kulgililik. Fojeaviylik muammosi har doim falsafiy-estetik tafakkur sohiblarining e‘tiborini jalb qilib kelgan. Deyarli barcha buyuk ijodkorlar yaratgan asarlarda fojeali ohanglar mavjud. Masalan, o‘zbek adibi Maqsud Shayxzodaning «Jaloliddin Manguberdi» va «Mirzo Ulug‘bek» asarlarida fojeali ohanglar boshdan oxiriga qadar sezilib turadi. Mazkur dramalar maxsus fojea asari sifatida yaratilmagan bo‘lsa ham, aslida, fojeali ohanglar ularda ustivor darajada ifodalangan. Har qanday fojea zaminida alohida fojiali to‘qnashuv yotadi va uning eng muhim tomoni ko‘lamlilik va ijtimoiy ahamiyatga molikligidir. Kulgililik. Bu bordagi mavjud nazariyalar kulgililikning predmetini ob‘ektiv xususiyat sifatida yoki shaxsning

sub'ektiv imkoniyatlari natijasi yohud sub'ekt va ob'ekt o'zaro aloqadorligining natijasi sifatida ko'rib chiqiladi va mazkur metodologik yondoshuv kulgililikdagi ko'pma'nolikning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Estetik tafakkur tarixida kulgililik bir qadar keng o'rganilgan. Jumladan, Aflotun ojiz va layoqatsizlarni kulgili odamlar, deydi. Nodonlik esa insonni kulgili qiladi.

### **Misollar orqali tushuntirish:**

- **Go'zallik:** Tabiat manzarasi, chiroyli musiqa
- **Xunuklik:** Tartibsizlik, vayronagarchilik
- **Ulug'vorlik:** Tog'lar, buyuk inshootlar
- **Pastkashlik:** Tubanlik, razolat
- **Fojeaviylik:** Qahramonning fojiali taqdiri
- **Kulgililik:** Masxarabozlik, hajv.

### **3. San'at va uning turlari.**

San'at – estetik tadqiqot ob'ektining umumiy nomi, mushtarak tushuncha. Xususiy tushuncha sifatida u voqelikni go'zallik va xunuklik, ulug'vorlik va tubanlik kabi qadriyatlar va aksilqadriyatlar orqali muayyan xil, tur hamda janrlar doirasida in'ikos ettiradigan badiiy ijod mahsulini anglatadi. Shu bois san'atni xil, tur va janrlarga bo'lib, estetik tadqiq etish odat tusiga aylangan. Biroq ana shu «bo'lib o'rganish», ya'ni tasniflashtirish, turkumlashtirish bir qarashda osondek ko'rinsa-da, aslida estetikadagi murakkab va chalkashliklarga to'la muammo sanaladi. Bu borada o'nlab nuqtai nazarlar bor. Tasniflashtirish avvalo san'atni xillashdan boshlanadi. San'at an'anaviy tarzda uch xilga bo'lib kelinadi:

1. Epos.
2. Lirika.
3. Drama.

«Epos» atamasi qadimgi yunonchadan olingan bo‘lib, so‘z, hikoya, qissa ma‘nolarini anglatadi. Unda muallifning o‘zi aralashmagan holda voqeanavislik qilishi, ya’ni ijodkorsub’ektdan voqelik-ob’ekt alohidalik tabiatiga egaligi eng muhim belgi hisoblanadi.

Lirika eposdan ko‘pincha qat’iy syujet chiziqlariga ega emasligi, voqelikni ob’ektda emas, sub’ektda berilishi, bevosita muallifning «aralashuvi» bilan shartlanganligi tufayli ajralib turadi. Ayni paytda ko‘lam nuqtai nazaridan ham uni farqlash mumkin; lirikadagi voqelik muallifning hissiyotlari prizmasidan o‘tib, idrok etuvchiga yetib boradi; unda hajm eposdagidek katta ham bo‘lishi mumkin, lekin miqyos, ko‘lam sub’ektlashtirilgan ob’ekt tarzida, sub’ektning bir qismi sifatida nisbatan torayadi va kichrayadi.

Drama (yunonchada-harakat degani) sahnada ijro etishga mo‘ljallangan, matni qatnashuvchilarning dialog va monologlari asosiga qurilgan, voqelikdagi hayotiy qaramaqarshiliklarni zididiyat holati (konflikt) orqali ifodalaydigan, san’atning nisbatan «sof» adabiy xili. Dramada lirikadagi sub’ektivlashish hodisasi yo‘q, eposdagi voqeanavislikni ham uchratmaymiz: hamma narsani ishtirok etuvchilarning xatti harakatlari va nutqlari hal qiladi. Shuningdek, unda eposdagi «og‘ir karvonlikni», lirikadagi «oniy kayfiyatni» ham ko‘rmaymiz: qahramonlar taqdiri dinamik tarzda rivojlanib boradigan fojeaviy azob-uqubatlar, og‘ir ko‘rgiliklar yoki tanqidiy kulgi

vositasidagi yechim bilan nihoya topadi. San'at turlarini uch turkumga bo'lib o'rganishni taqozo qiladi. Bular:

1. Arxaik - endilikda tarixga aylangan, hozirga paytda real hayotda amalda bo'lmagan.
2. An'anaviy - qadimdan hozirgi kungacha o'z o'rnini va ahamiyatini yo'qotmay kelayotgan.
3. Zamonaviy – ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida vujudga kelgan «texnikaviy», yangi san'at turlari.

**Arxaik san'at turlari.** Bu san'at turlariga asosan badihago'ylik va xattotlikni kiritish mumkin. Badihago'ylik. Bu san'at turi asosan lirik yoki didaktik she'rlarni o'z ichiga oladi. Badihago'ylarni ba'zan maddohlar deb ham atashgan. U asosan Sharqda vujudga kelgan va taraqqiy topgan. Uni g'arb adabiyotidagi imporovizatsiya yoki eksprompt san'atkorlar bilan chalkashtirish kerak emas. Chunki ular muayyan san'at turi ichidagi hozirjavoblik, xolos. Badihago'ylik – og'zaki ijod qiluvchi san'atkor. Xattotlik. Yozma adbiyotning keng yoyilishi bir tomondan, badihago'ylik ravnaqiga chek qo'ygan bo'lsa, ikkinchi tomondan yangi san'at turi xattotlikni vujudga keltirdi. Xattotlik Xitoy, Yaponiya, Suriya va musulmon mintaqasida va Ovro'pada keng yoyildi, dastlab unga qimmatbaho kitoblarni chiroyli yozuv bilan ko'chirib ko'paytirish xunari sifatida qaralgan. Keyinchalik u mustaqil san'at turiga aylandi. Xattotlik quroli sifatida musulmon Sharqida qamish qalam, Budha Sharqida - mo'yqalam, Ovro'pada - patqalam qo'llanilgan.

**An'anaviy san'at turlari.** Avval aytganimizdek, barcha san'at turlari dastlab vujudga kelganida, ularda bevosita manfaatdorlik,

fidoyilik jihatlari ustuvor bo'lgan, hunar sifatida qabul qilingan: yuqoridagi badihago'ylik ham, xattotlik ham tekinga bajarilmagan. Keyichalik ularda estetik xususiyatlar, xususan, go'zallik asosiy maqsadga aylangan. An'anaviy san'at turlarining ba'zilarida ana shu ikki tomon baravar, bevosita tarzda saqlanib qolgan. Bunday san'at turlari sirasiga me'morlik va ko'rgazmali san'at kiradi.

Me'morlik. Bu san'at turining paydo bo'lishi insonning turar joyga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan va odamning estetik tabiati uni tobora go'zallashtirib borishni talab etgan. Keyinchalik bu talab o'limdan keyingi —turar joyga maqbaralarga tadbiq etilgan. Undan so'ng hukumdorlar saroyilari, devonxonalar turli rasmiy va norasmiy xizmat binolari, ibodatxonalar ham ana shu go'zallik qonuniga binoan qurilgan. Ispaniyadagi Al-Humro masjidi, Olmoniyadagi Kyoln jomesi, Xivadagi Nurillavoy saroyi va boshqalar shular jumlasidan. Me'morlik – mavjudligi makon bilan shartlangan san'at turi. Unda hajm, makonni egallash xususiyati birinchi o'rinda turadi, deyishadi, aslida —xajm emas, mahobat atamasini qo'llash maqsadga muvofiq, zero mahobat ulug'vorlik ifoda topgan hajmdir. Me'morlikning san'at sifatidagi estetik mohiyati uning kulgililik xususiyatini inkor qilishi va ulug'vorlik xususiyatini barqaror etishi bilan bog'liq, hech bir san'at turida ulug'vorlik bu qadar o'zini yaqqol namoyon qilmaydi.

Ko'rgazmali-amaliy san'at. Ko'rgazmali-amaliy san'at qadimdan, mehnat qurollari, hunarmandchilikning rivojlanib borishi bilan kundalik turmush ehtiyoji uchun qo'llaniladigan ash'yolarni bezash, me'morlik inshootlarini turli naqshlar va koshinlar vositasida go'zallashtirish orqali estetik talablarga javob berib keladi. Aynan ana

shu san'at turida hunarmandchilikning san'atga aylanishi ro'y beradi.

Haykaltaroshlik-monumental san'at. Eng qadimgi, ibtidoiy davrlardan boshlab hozirgacha haykaltaroshlik o'z maqomini yo'qotmay kelayotgan san'at turlaridan biri. Bu san'atning asosida faqat oniy, bir lahzalik san'at tasviri yotadi. Haykaltarosh tomonidan ana shu eng muhim harakatini topish hamda unga mos nur va soyani tanlash yuksak isde'dodni talab qiladi. Haykaltaroshlik monumental san'at deyiladi. Chunki ko'pincha u katta hajmli haykallar yoki majmularni o'z ichiga oladi. Ayni paytda uning kichik hajmdagi va har biri o'ziga xos bo'lgan holda muayyan yuzalikda shakllar uyg'unligini tashkil etadigan ko'rinishlari ham mavjud. Haykaltaroshlikning birinchi hiliga alohida makonni egallagan va har hil rakkursda tomosha qilish mumkin bulgan asarlar kiradi. Baxshilik san'ati. Odatda baxshilikni estetikada san'at turiga kiritish qabul qilinmagan va xalq og'zaki adabiy ijodi sifatida badiiy adabiyotning xili deb hisoblab kelinadi. Aslida —bunday kamsitishning sababi o'zbek estetikasida shu paytgacha ovro'paga, to'g'rirog'i, ruslarga taqlidning nihoyatda kuchli bo'lganida. Shunday qilib, biz uni to'laqonli san'at turi deb bilamiz va buni isbotlashga harakat qilamiz.

Rassomlik san'ati. Bu san'at turi ham qadimdan mavjud, uning dastlabki namunalarini qadimgi tosh asridagi g'orlar devoriga ishlangan rasmlarda ko'rish mumkin. Ularda asosan ov hayvonlari va inson tasviri berilgan. Rang tasvir voqelikning san'atkor tanlagan nuqtai nazardan mo'yqalam va bo'yoqlar vositasida muayyan tekis materialga rasm tarzida tushirishdan iborat. Unda rassomning uslubi, bo'yoq tanlashdagi mahorati, nur va soyalar o'yini yangicha

kompozitsion yondashuv kabi san'atkor iste'dodini belgilaydigan jihatlar muhim ahamiyatga ega. Musiqa san'ati. Agar rassomlik san'atida, deylik uning manzara janridagi Levitanning mashhur —Qarag'ayzor|| asari ko'z oldimizda muayyan ma'noda tugallangan rangtasvir sifatida namoyon bo'lsa, musiqa asari, masalan, Betxovenning —Oydin sonata||si yoki Hoji Abdulazizning —Guluzorim|| kuyi ohanglar vositasida tinglash jarayonida chizilayotgan rangtasviridir. Ya'ni rangtasvir badiiy mazmundagi markazni in'ikos ettirgan holda ibtido bilan intihonni tasavvurimizga havola qilsa, musiqada ibtido, markaz va intiho asarning o'zida mujassam bo'ladi. Shu bois rassomlik san'atini ranglar musiqasi, musiqani esa tovushlar tasviri deyish mumkin.

Raqs san'ati. Bu san'at turi Ovro'pada xoreografiya deb ataladi va raqsning barcha turlarini o'z ichiga oladi. Raqs qo'l va oyoq harakatlariga asoslanadi, lekin bu harakatlar ritm, muqom va badanning plastik egiluvchanligi vositasida shiorona xayolot parvozini ifodalaydi. Bu vositalarning hammasi musiqa yordamida (juda bo'lmaganda bir musiqiy asbob ishtirokida) umumiy bir uyg'unlikni tashkil etadi, ana shu uyg'unlik raqsning san'at sifatidagi mohiyatini anglatadi. Raqsning ham o'z ichki turlari ko'p, diniy-falsafiy raqslar, mehnat raqslari yoki kasbiy raqslar, sof o'yindan iborat raqslar, insoniy kayfiyatni anglatadigan raqslar, maxsus ssenariy (libretto) asosida sahnalashtiriladigan va uzoq vaqt davom etadigan raqslar v.h.

Teatr san'ati. Insoniyat ma'naviy hayotida teatr san'ati juda qadamdan o'z o'rnini yo'qotmay keladi. Bundan bir necha ming yillar avval qadimgi Hindiston, qadimgi Xitoy va qadimgi Yunonistonda

dastlab teatr bir kishilik sahnadan iborat bo'lgan, keyinchalik ikki kishilik sahnadan, undan keyingina jamoviy san'aturiga aylangan. Ya'ni spektakl jamoaviy ijod mahsuli – rejissyor, dramaturg, aktyor va rassomning ijodiy izlanishlari natijasi o'laroq yuzaga keladi. Ayni paytda unda bir necha san'at turi omuxta tarzda namoyon bo'ladi: me'morlik, rassomlik (dekoratsiya), musiqa va notqlik san'atining hamkorligi spektaklning sahnaviy asosini, dinamik tarzda rivojlanib boradigan dramatism esa uning badiiy – estetik mohiyatini belgilab beradi.

Sirk san'ati. Sirk eng qadimgi an'anaviy san'at turlaridan biri. U Sharqda vujudga kelgan va dorbozlik san'ati deb ham atalgan, ko'chma tomosha sifatida xalq orasida shuhrat qozongan. Unda dorda langar bilan yurishdan tashqari, dorboz havo gimnastikachisi (chig'iriqda) vazifasini ham bajargan. Pastda albatta nog'ora dorbozning harakatlariga mos ohangda yangrab turgan. Ayni paytda pastda qiziqchi, ko'zboylog'ich, akrobat (besuyak), ayiq o'ynatuvchi ishtirok etgan, ba'zan askiyadan ham foydalanilgan. Sirk insonning nafaqat o'z a'zolari va hissiyotlari, balki hayvonlar, o'yin asbobi bo'lmish narsalar, makon, tomoshabinlar hissiyotlari, atrof-muhit ustidan, kengroq ma'noda olganda, dunyo ustidan cheksiz hukumronligini namoyish etishi bilan bizni doimo xavotirdan hayratga aylanadigan estetik idrok etish jarayonini boshdan kechirishimizni ta'minlaydi.

**Zamonaviy san'at turlari.** Texnikaviy yutuqlar asosida vujudga kelgan zamonaviy san'at turlari insonning har qanday qulay sharoitdan yangi san'at turi yoki asarlarini yaratish uchun foydalanishini ko'rsatadi, insondagi san'atga bo'lgan azaliy va abadiy intilishidan

dalolat beradi. Bir paytlar, o‘ta ratsional, san‘at bilan sig‘ishmaydigan, qo‘pol deb hisoblangan texnikadan hozirgi paytda inson ildizi noratsionallikka borib taqaladigan badiiy qiyofa yaratish uchun foydalanmoqda. Shuning natijasi o‘laroq, keyingi bir yarim asr ichida bir necha zamonaviy (texnikaviy) san‘at turlari paydo bo‘ldi va rivojlandi.

Fotosan‘at. XIX asrning 20-30-yillarida fransuzlar J.Nens, L.Dager, ingliz U.Tolbot tomonidan shahar manzaralari, mevalarning rassomlik san‘atidagi ko‘rinishlarini optika va kimyo yordamida suratga ko‘chirish amalga oshiriladi. Uni dastlab «fotogeniya», «fotogenik san‘at» deb, keyinroq esa, uni rassomlik san‘atidagi rangtasvir va grafikaga yaqinligi nazarda tutib, «fotografiya» degan nom bilan atashdi. Muhimi shundaki, suratga tushirishni badiylashtirish, fototexnika asosida san‘at asari yaratish boshlandi. Ayni paytda, endi rangtasvirning kuni bitdi, degan, shoshib aytilgan fikrlar ham o‘rtaga tashlandi. Badiiy suratkashlikning, ya‘ni nurtasvirning rangtasvirdan farqi va eng muhim belgisi – bu uning hujjatlilik xususiyati, undagi har bir suratga olingan hodisa real asosga ega.

Kino. Eng miqyosli zamonaviy san‘at turi hisoblanadi. Bugungi kunda u hamma yerda «hoziru nozir». Uni kinoteatrlarda jamoaviy, televidenie va videomagnitafon orqali esa oilaviy yoki individual tomosha qilish mumkin. Hozirgi paytda kino o‘zining dastlabki «harakatdagi fotografiya» holatidan shu qadar uzoqlashib ketganki, endi uning ovozsiz davridagi montaj dramaturgiyasiga suyanib qolgan san‘at sifatida tasavvur ham qilish qiyin.

Televidenie. Agar estrada «san’atdagi jurnalistika» bo’lsa, televideniени «jurnalistikadagi san’at» deyishimiz mumkin. Hozir uni faqat ommaviy axborot vositasi va san’at targ’ibotini texnikaning eng yangi yutuqlari asosida amalga oshiruvchi zamonaviy omil sifatida olib qarash uni kamsatishdan boshqa narsa emas. To’g’ri, telejurnalistika mavjud va uni inkor etish aqlga to’g’ri kelmaydi. Lekin ayni paytda ana shu real hayot real voqealar va real odamlar ishtirokidagi «jurnalistik» syujetlarning san’at darajasiga ko’tarilganini, ularning estetik ahamiyat kasb etganini yaqqol ko’ramiz.

Xulosa qilib aytganda, mazkur bob mobaynida san’at xillari, turlari va janrlarini tasniflashtirishdek murakkab masalalarni baholi qudrat ko’rib o’tdik. Bizning ba’zi mulohazalarimiz, ilmiy xulosalarimiz umumjahoniy ildizga ega bo’lgan milliy estetikamizda bu boradagi dastlabki nazariy yondashuvlardir. Biroq ularni mutlaqlashtirishdan yiroqmiz, asosiy maqsad talabalar va domlalarda mustaqil fikrlash malakasini yuksaltirishdan iborat.

Dizaynning estetik hususiyatlari. Dizayn bugun kishilarning tobora ortib borayotgan moddiy va ma’naviy ehtiyojlariga javob berishi, buyumlar muhitini uyg’un va mutanosibligini ta’minlashda tabiat qonuniyatlari, ekologiya tamoyillariga tayanadi. Dizayn fan va texnikaning turli sohalaridagi ilmiy tadqiqot natijalari, yutuqlaridan foydalangan holda turmushimizni farovon va obod bo’lishiga xizmat qiladi. U muayyan ob’ektni modellashtirish jarayonida unga ishlov berishning barcha bosqichlarini hisobga oladi, uning kompozitsiyasi, ergonomik yechimini topish, insoniyatni konkret buyumli muhitda o’rab turgan mahsulotlar kompleksining butun bir tizim sifatida

qarashni maqsad qilib qo'yadi. Uning turli sohalari mavjud bo'lib liboslar dizaynidan tortib, uy jihozlari-yu, inson yashab yoki mehnat qilayotgan makonni badiiy loyihalash uning estetik didi va estetik madaniyatini takomillashtirishda alohida o'rin tutadi. Interer-ya'ni binolarning ichki muhitini badiiy loyihalashtirish dizaynning o'ziga xos va qiziqarli sohalardan biridir. Uni ham jonli tabiatga xos belgilar bilan boyitish, qiziqarli va qulay etish azaldan mavjud bo'lgan. Qadimda ajdodlarimiz buning e'tiqodiy jihatiga e'tibor qaratishgan. Masalan qo'chqor boshi, bo'ri tishlari ilohiy va kuch-qudrat ma'nosida xonadonlar ba'zan ibodat qilinadigan joylarda mavjud bo'lgan. Bugun xonadonlarda tabiatning bir bo'lagi bo'lgan hayvonot olami uy bezagi sifatida namoyon bo'ladi. U zamonaviylashtirilib, fuksiyasi ortib bormoqda. Masalan kiyik boshida soat, yoki hayvon tishlari kiyim ilgich sifatida qo'lanilayotganini ko'rish mumkin.

Shuningdek O'zbekistonning turli viloyatlarida o'ziga xos turmush tarziga egaligi, o'z an'ana-yu, urf-odatlariga egaligida ham namoyon bo'ladi . Inson yashash makonida eng muhim xususiyat jihozlarning ratsional, maqsadga muvofiq joylashtirish, buyumlar muhitini kompleks loyihalashtirishdir. Binolarning me'moriy qiyofasida bo'lgani kabi, intererda ham amaliylik va nafosat, foyda va go'zallik uzviy birlik hosil qilishi kerak. Amaliyotning ko'rsatishicha bu o'rinda funksional ahamiyatga ega bo'lmagan ortiqcha zeb berish ham, sof amaliylik ham zararlidir. Intererning funksional-tashkiliy, ijtimoiy-psixologik, sanitariya-gigiena jihatlarning birligi go'zalligi uyg'unlik, mukammallik, tugallik singari xususiyatlar asosida yuzaga keladi. Inter'erning estetik ahamiyatini oshirish xizmat xonalari va ish

o‘rinlarini qulayligi, zarur mebel, texnik vositalar, apparatlar bilan jihozlash, devorlar, shift, polni funkziyasiga muvofiq bo‘yalishi, bino yaqinidagi hududni ko‘kalamzorlashtirish, xonalarda yorug‘lik va harorat, tinchlik saqlanish, tozalik va tartibni saqlash, xonalarga muvofiq amaliy-dekorativ san‘at asarlaridan oqilona foydalanishni taqozo etadi. Bugun xonadon intererini uy jihozlar, texnikasiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Uyingizning ko‘rkam va shinamligi bu jihozlarning ko‘pligi bilan emas, balki qanday joylashtirilishi va uying qurilishi, funksionalligiga muvofiqqligi, siz uchun qulayligi bilan belgilanadi. Zero, ushbu jihozlar yilma-yil takomillashib, zamonaviylashib bormoqda.

#### **4. Estetik tarbiya, uning omillari va vositalari.**

##### **“Ommaviy madaniyat”ning yoshlar estetik tarbiyasiga ta’siri.**

Estetik tarbiyaning asosiy vositalari tarkibiga - san‘at, informatsion texnologiyalar, tabiat, mehnat, sport kabi sohalarni kiritish mumkin. San‘at - estetik tarbiyaning muhim vositasi. Bugungi kunda jamiyatimizda inson faoliyatini boshqarib borishdan ko‘ra, ushbu jarayonni insonning o‘zi tashkil etishi kerakligi bot-bot uqtirilmoqda. Bu jarayonda san‘at mohiyatan shaxsning xis-tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatishga qodir bo‘lgan muhim vosita sifatida insonni doimo o‘ziga jalb etib kelgan. San‘at insonning ehtiroslar va tuyg‘ular olamiga singib borib ularni yig‘latadi, kuldiradi, o‘ylashga majbur qiladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak san‘at barcha davrlarda insonga hamroh bo‘lib kelgan. Informatsion texnologiyalar - estetik tarbiyaning global

vositasi. Bir paytlar tabiiy va texnika bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari talabalariga "Sizning ideallaringiz asosan qaysi sohalarda aks etadi?", degan savolga ularning ko'pchiligi san'at, adabiyot va ma'rifat sohasida ko'proq aks etadi, degan javob berishgani ham fikrlarimizni isbotlaydi.

Biroq, endilikda estetik tarbiyaning shunday vositalari mavjudki, uning ma'naviy jarayonlarga ko'rsatayotgan global ta'siriga befarq bo'lish aslo mumkin emas. Ana shunday ta'sirlardan biri - bu elektron axborot vositalardir. Aytish mumkinki, axborot va kommunikatsiya texnologiyasi bugungi kunda insoniy va iqtisodiy taraqqiyotning muhim vositasiga aylanishi natijasida odamlarning turmush tarzini, o'zaro aloqasini xatto tashqi ko'rinishini ham tubdan o'zgarishiga olib keldi. Mehnatning estetik tarbiya vositasi sifatidagi ahamiyati. Mehnat ham moddiy, hamda ma'naviy go'zalliklar yaratish bilan estetik tarbiyaning muhim vositasiga aylanadi. Bu jarayon ijtimoiy-foydali mehnatning badiiylik bilan aloqasi ta'sirida vujudga keladi. Mazkur munosabat pirovardida mehnat vositalarining insonga keltiradigan zararini kamaytiradi. qolaversa, mehnatga ijodiy yondashuv jamiyat ma'naviy qiyofasini belgilovchi omil hisoblanadi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari inson estetik tarbiyasiga yaqindan ta'sir qiluvchi qudratli va faol kuchdir. Ayniqsa, televidenie shaxs hamda ommani estetik dunyoqarashini shakllantirishda, ularni nafosatli jihatdan tarbiyalashda yuksak ahamiyat kasb etadi. Rang-barang mavzulardagi ko'rsatuvlar badiiy va hujjatli filmlar, ijtimoiy- ma'naviy mazmundagi reklamalar, telemarafonlar nafosatli tarbiyani maqsadli

yoʻnaltirishda, insonlar tafakkurida goʻzallikka boʻlgan yangicha munosabatni shakllantirishda salmoqli ahamiyat kasb etadi.

Sport – estetik tarbiyaning zamonaviy vositasi. Sport estetik tarbiya vositasi sifatida zamonaviy insonni kamol toptirishda alohida eʼtiborga ega. Hozirda sportni rivojlantirish mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga koʻtarildi. Bundan koʻzlangan asosiy maqsad avlodni jismonan baquvvat, sogʻlom, vatanning jasur himoyachisi qilib tarbiyalashdir.

Sogʻlom turmush tarzi estetikasi. Sogʻlom turmush tarzini shakllantirishda estetik tarbiyaning oʻrni nihoyatda katta va ularga, aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiya tarbiyani kiritish mumkin. Sogʻlom turmush tarzi estetikasiga anʼanaviy va zamonaviy yondoshuvlar mavjud. Estetik tarbiyaning turlari va yoʻnalishlariga: ommaviy axborot vositalari; sanʼat; badiiy adabiyot kiradi. Shaxsni estetik tarbiyalashda taʼlim tizimining roli nihoyatda ahamiyatlidir.

Mehnat esa - turmush estetikasining muhim omili hisoblanadi. Insonda xulq goʻzalligini shakllantirishning zamonaviy koʻrinishlari mavjud boʻlib, didlilik va farosatlilik – yuksak madaniyat belgisi, farosatsizlik esa shaxs kamolotidagi illat hisoblanadi.

“Ommaviy madaniyat”ning yoshlar estetik tarbiyasiga taʼsiri. Globallashuv insoniyat tarixiy taraqqiyoti, madaniy merosi, ijtimoiy tuzumi va mafkuraviy qarashlarida jiddiy oʻzgarishlar sodir boʻlishini taqozo etmoqda. Bu jarayon turmush tarzida ham namoyon boʻlmoqda. Ayniqsa, oilada voyaga yetadigan yosh avlodni yuksak estetik ideallar asosida tarbiyalash, uni har tomonlama yetuk shaxs boʻlib yetishishini taʼminlash masalalari dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Yosh

oilalarga g'amxo'rlik ko'rsatish, ayollarning turmushi va mehnat qilishlariga sharoitlar yaratish, onalik muhofazasi ularning davlat va jamoat tashkilotlaridagi faoliyatlarini faollashtirish bu jarayonning asosiy yo'nalishlaridir. Shuningdek, globallashtirish jarayoni an'anaviy o'tmish merosimiz va zamonaviy qadriyatlarimizga tahdid soluvchi kuch sifatida ham amal qilishi mumkin.

Chunki globallashtirishning musbat va manfiy jihatlari bo'lib, gap ana shu jihatlarga nisbatan ijtimoiy-ma'naviy munosabatlarni to'g'ri tanlashga borib taqaladi. Shu boisdan taraqqiy etgan mamlakatlarning globallashtirishga bo'lgan ta'sir doirasidan, ularning shaxs ongi va ruhiyatiga asta-sekinlik bilan salbiy ta'sir etuvchi, «ommaviy madaniyat» negizida kirib kelayotgan estetik madaniyatlaridan ogoh bo'lmoq darkor. Mana shunday xalqimiz turmush tarzi, ma'naviyati, estetik madaniyatiga kirib kelishga intilayotgan «badiiy mahsulotlardan» ehtiyot bo'lmoq kerak. Chunki, beozorgina ko'ringan biror buyum, multfilm yoki «ommaviy mahsulot» odamlar qalbi va ongiga ta'sir etishi, milliy-estetik madaniyatiga putur yetkazishi mumkin. Har bir shaxs globallashtirishning ijtimoiy go'zallik va sog'lom ruhiy muhitni o'zlashtirishga harakat qilib, o'zi anglamagan holda milliy meros va estetik madaniyatiga salbiy ta'sir etuvchi makonga tushib qolmoqda. Bunday holatlar yangi asrda ko'proq diniy ekstremizm va terrorizm harakatlarida o'z qiyofasini namoyon etmoqda. Masalan, globallashtirish davri terrorizmi o'zining niqoblangan mohiyatini —rangli inqiloblar shiori ostida namoyon etmoqda. Buning oqibatida ba'zi buzg'unchi kuchlar xalqlarning taqdiri va kelajagiga tahdid solib, azaliy milliy qadriyatlarini paymol qilib, o'zlarining

—qo‘g‘irchoqlari sifatida siyosiy o‘yinlarga jalb etmoqdalar. Texnogen sivilizatsiya - estetik faoliyat va estetik didni shakllantirishning muhim omilidir. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni insoniylashtirish va go‘zallashtirish estetik muammolardan hisoblanadi. Axborot estetikasining o‘ziga xos xususiyatlari va uning siyosiy, badiiy, ijtimoiy, axloqiy, ma’naviy jarayonlar bilan bog‘liqligidadir. Reklama estetik ma’lumot olish vositasi bo‘lib bormoqda. Ularning turlari va shakllari hilma xildir. Reklama estetikasida milliylik va umumbashariylik namoyon bo‘lib boradi. Milliy ma’naviyatga ta’sir o‘tkazuvchi tashqi tahdidlar ayni paytda estetik tarbiya jarayonga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa ijtimoiy-ma’naviy munosabatlar tizimida estetik tarbiyani maqsadli yo‘naltirishni taqazo etmoqda. Ta’kidlash o‘rinliki, estetika niqobi ostida turli xil ko‘rinishdagi —sog‘lom turmush tarzi targ‘ibotchilari, —ko‘ngilocharl va —musaffo tuyg‘ul baxsh etuvchi saytlar talaygina. Eng dahshatlisi keyingi paytlarda internet tarmog‘ida vampirizm estetikasi va uning targ‘iboti bilan bog‘liq saytlarning ko‘payib borayotganligi tashvishlanarli xoldir.

Xo‘sh —ommaviy madaniyatll illat sifatida qanday namoyon bo‘lishi mumkin?

1. “Ommaviy madaniyat” namoyondalarining amallari o‘zlari uchun har taraflama manfaatdorlikka asoslangan: ular —noyob san’atli namunalari-g‘oyalarini nafaqat targ‘ib qiladi, balki pullaydi ham.

2. Faqat bugunni, yana ham aniqrog‘i hozirni ko‘radi va tan oladi.

3. Umuminsoniy madaniyatni bo‘ysundirish va o‘z ta’sir doirasiga tortish kabi tuban maqsadlarni amalga oshirishga harakat qiladi.

4. U odamzodning fikrlashiga tish-tirnog‘i bilan qarshi. Andozalashgan qurshovida qolgan odamlarning o‘zi ham bora-bora bir o‘lchamga tushadi: hammaning yurish-turishi, o‘ykechinmasi, fikrlash tarzi, bari bir xil.

5. Shaxsning ijtimoiylashuviga imkon bermaydi. U voqea jarayonlarga loqayd, befarq avlodni shakllantiradi.

6. “Ommaviy madaniyat” o‘z navbatida mafkuraviy, informatsion, iqtisodiy qadriyatlardan foydalangan xolda —ma’rifatparastlik g‘oyalari asosida o‘ziga xos muomala va muloqot madaniyatini ham targ‘ib qiladi.

7. “Ommaviy madaniyat”ning asl maqsadi har kuyga solish mumkin bo‘lgan olomoni shakllantirish bo‘lgani bois, u ma’naviy oziq beradigan, badiiy yuksak, o‘quvchini mushohadaga undab, tasavvur olamini kengayishiga xizmat qiladigan asarlarni yaqiniga yo‘latmaydi. Shuning uchun —ommaviy madaniyat namunalari badiiy-estetik qimmatga ega emas.

# Dars o'tish metodi

## DARS MAQSADI

### Ta'limiy:

- Talabalarga **estetika fanining predmeti, vazifalari va asosiy kategoriyalari** (go'zallik, xunuklik, ulug'vorlik, fojeaviylik, kulgi) haqida bilim berish
- Estetik tafakkur mohiyatini tushuntirish

### Tarbiyaviy:

- Talabalarda **go'zallikka hurmat, san'atga qiziqish, estetik didni** shakllantirish
- Ma'naviy qadriyatlarga e'tiborni kuchaytirish

### Rivojlantiruvchi:

### Tahliliy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish



### Mustaqil fikr bildirish va asoslash ko'nikmasini shakllantirish

## KERAKLI JIHOZLAR

- Kompyuter va proyektor (ixtiyoriy)
- Doska va marker
- Tarqatma kartochkalar
- Rasmlar yoki slaydlar
- Baholash varaqalari

<b>DARSNING BORISHI</b>	
<b>I. Tashkiliy qism (5 daqiqa)</b> <ul style="list-style-type: none"><li>• Salomlashish</li><li>• Davomatni aniqlash</li><li>• Talabalarni 4 guruhga bo'lish:<ol style="list-style-type: none"><li>1. <b>Go'zallik</b></li><li>2. <b>San'at</b></li><li>3. <b>Did</b></li></ol></li></ul>	<b>II. O'tgan mavzuni qisqa takrorlash (5 daqiqa)</b> <p>Savollar:</p> <ul style="list-style-type: none"><li>• Estetika qaysi fanlar bilan bog'liq?</li></ul>

<p>4. Ijod</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Inson hayotida go‘zallikning o‘rni qanday?</li> </ul>
<p><b>III. Kirish motivatsiyasi (10 daqiqa)</b></p> <p>🌀 “Aqliy hujum” metodi:</p> <p>Savol doskaga yoziladi:</p> <p>“Go‘zallik nima?”</p> <p>Talabalar fikrlarini aytadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Tabiat go‘zalligi</li> <li>• Inson go‘zalligi</li> <li>• San’at go‘zalligi</li> </ul> <p>O‘qituvchi xulosa qiladi:</p> <p>Demak, go‘zallikni va uni idrok qilish qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan — <b>ESTETIKA</b>dir.</p>	
<p><b>IV. Asosiy qism (45 daqiqa)</b></p>	
<p><b>1 Nazariy qism (15 daqiqa)</b></p> <p>O‘qituvchi tushuntiradi:</p> <p>Estetika:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Predmeti</li> <li>• Maqsadi</li> <li>• Vazifalari</li> </ul> <p>Asosiy kategoriyalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Go‘zallik</li> <li>• Xunuklik</li> <li>• Ulug‘vorlik</li> <li>• Fojeaviylik</li> </ul>	<p><b>2 Amaliy qism: “Tushuncha jonlanadi” (15 daqiqa)</b></p> <p>Har bir guruhga bitta tushuncha beriladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• 1-guruh: Go‘zallik</li> <li>• 2-guruh: Ulug‘vorlik</li> <li>• 3-guruh: Fojeaviylik</li> <li>• 4-guruh: Kulgi</li> </ul>

<ul style="list-style-type: none"> <li>• Kulgi (komiklik)</li> </ul>	<p>Topshiriq:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Uni <b>hayotiy misol, sahna ko‘rinishi yoki rasm orqali</b> ifodalash</li> </ul> <p>Boshqa guruhlar:</p> <p>Qaysi estetik kategoriya tasvirlanganini topadi</p>
<p><b>3“Rasm tahlili” metodi (10 daqiqa)</b></p> <p>O‘qituvchi 1–2 ta rasm yoki slayd ko‘rsatadi.</p> <p>Savollar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Bu nimasi bilan chiroyli?</li> <li>• Qaysi estetik kategoriya?</li> <li>• Qanday his uyg‘otadi?</li> </ul>	<p><b>V. Mustahkamlash (10 daqiqa)</b></p> <p> <b>“Estetik auksion”</b></p> <p>Qadriyatlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Go‘zallik</li> <li>• Mazmun</li> <li>• Shakl</li> <li>• Ta’sir kuchi</li> <li>• Mashhurlik</li> <li>• Foyda</li> </ul> <p>Har guruhda 100 ball.</p> <p>Savol:</p> <p>San’at asarida qaysi biri muhimroq?</p>
<p><b>VI. Baholash (3 daqiqa)</b></p> <p>Baholash mezonlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Faollik — 2 ball</li> <li>• Fikr bildirish — 2 ball</li> <li>• Guruh ishida ishtirok — 2 ball</li> <li>• Tahlil qilish — 2 ball</li> <li>• Madaniyatli munozara — 2 ball</li> </ul> <p> Jami: 10 ball</p>	<p><b>VII. Yakuniy xulosa (5 daqiqa)</b></p> <p>O‘qituvchi xulosasi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Estetika — insonni faqat bilimlil emas, <b>ma’naviy va didli</b> inson qilib tarbiyalaydigan fandır.</li> </ul>

## **VIII. Uyga vazifa**

1-variant:

“Mening hayotimda go‘zallik” mavzusida esse (1–2 bet)

2-variant:

Bir san‘at asarini tanlab, **estetik tahlil** qilib kelish

### **Nazorat savollari:**

1. “Estetika” tushunchasining mazmun-mohiyati nimadan iborat?
2. Ulug‘vorlik inson tabiatida qanday namoyon bo‘ladi?
3. “Estetika-go‘zallik falsafasi” deganda nimani tushunasiz?
4. “Ommaviy madaniyat” hodisasining yoshlar estetik madaniyatiga salbiy ta‘sirini tushuntiring.
5. Estetik tarbiyada san‘atning o‘rni haqida gapiring.
6. Estetik munosabat va estetik did tushunchalarining mohiyatini ayting.
7. Estetika va axloqning uyg‘unligi nimada?

### **Test savollar:**

#### **1. Estetika nimani o‘rganadi?**

- A) Jamiyat taraqqiyotini
- B) Inson tafakkurini
- C) Go‘zallik va san‘atni
- D) Axloqiy me‘yorlarni

#### **2. Estetika fanining asosiy predmeti nima?**

- A) Huquq
- B) Go‘zallik va san‘atdagi qonuniyatlar
- C) Siyosat
- D) Tarix

### **3. Quyidagilardan qaysi biri estetik kategoriya hisoblanadi?**

- A) Qonun
- B) Burch
- C) Go‘zallik
- D) Bilim

### **4. Estetik idrok nima?**

- A) Narsani ko‘rish
- B) Narsani eshitish
- C) Go‘zallikni his etish va baholash
- D) O‘rganish jarayoni

### **5. San‘atning asosiy vazifasi nima?**

- A) Axborot berish
- B) Faqat ko‘ngil ochish
- C) Insonni estetik tarbiyalash
- D) Faqat tarixni saqlash

### **6. Quyidagilardan qaysi biri estetik ong shakliga kiradi?**

- A) Huquqiy ong
- B) Diniy ong
- C) Estetik did
- D) Siyosiy ong

### **7. Estetik ideal nima?**

- A) Qonuniy me‘yor
- B) Insonning mukammallik haqidagi tasavvuri
- C) Axloq qoidasi
- D) Reja

### **8. Estetik did nimani bildiradi?**

- A) Moda ortidan yurish
- B) Go‘zallikni farqlay olish qobiliyati
- C) Boylikni sevish
- D) San‘atni bilish

**9. Quyidagilardan qaysi biri estetik faoliyatga kiradi?**

- A) Qonun chiqarish
- B) San'at asari yaratish
- C) Soliq to'lash
- D) Hisobot yozish

**10. Estetik tarbiya nima?**

- A) Faqat san'at o'rgatish
- B) Insonda go'zallikni his qilishni shakllantirish
- C) Axloq qoidalarini o'rgatish
- D) Qonunlarga o'rgatish

# INSON FALASFASI FANINING PREDMETI VA JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI

## INSON FALASFASINING TUZILMASI

- ➔ Ontologiya
- ➔ Gnesologiya
- ➔ Etika

## ASOSIY TUSHUNCHALAR

- Individ va Shaxs
- Erkinlik
- Mas'uliyat
- Hayot Mazmuni
- Taqdir va Iroda

## FAN PREDMETI

- Insonning Mohiyati
- Biologiya va Ijtimoiylik
- Hayot Mazmuni va Maqsadi

# INSON FALASFASI

## JAMIYATDAGI O'RNI

- Mas'uliyatli Shaxs Tarbiyasi
- Ma'naviy Idealni Tarbiyalash
- Munosabatlar Ruhiyati

## JAMIYATDAGI AHAMIYATI

- ➔ O'zini Anglash
- ➔ Mas'uliyatni Yuksaltrish
- ➔ Insonparvarlik

## JAMIYATDAGI O'RNI

- Mas'uliyatli Shaxs Tarbiyasi
- Ma'naviy Idealni Tarbiyalash

## ≡ XULOSA ≡

Hayot

Erkinlik

Mas'uliyat

Baxt

### **3- mavzu. Inson falsafasi**

- 1. Falsafiy antropologiya tushunchasi**
- 2. Tabiat va jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati**
- 3. Ongning kelib chiqishi, mohiyati tuzilishi, shakllari va funksiyalari.**

*Tafakkur, Erkinlik, Mas’uliyat, Ma’naviyat, Qadriyatlar, Hayot ma’nosi, Axloq, Ijtimoiy mavjudot, Shaxsiy va jamiyat munosabatlari, Biologik va ma’naviy birlik, Iroda, His-tuyg‘u, Madaniyat, E’tiqod, Tarixiy-metodik yondashuv, Tanqidiy tahlil.*

#### **1. Falsafiy antropologiya tushunchasi**

Inson falsafiy tahlil ob’ekti sifatida. Insonning yaralishi, mohiyati va jamiyatda tutgan o‘rni falsafiy muammolar tizimida muhim o‘rin tutadi. Turli falsafiy ta’limotlarda bu masalalar turlicha talqin etib kelingan. Shunday bo‘lishi tabiiy ham edi, chunki inson mohiyatan ijtimoiy-tarixiy va madaniy mavjudot sifatida har bir yangi tarixiy sharoitda o‘zligini chuqurroq anglashga, insoniy mohiyatini ro‘yobga chiqarishga intilaveradi. Insonda butun olam va jamiyatning mohiyati mujassamlashgandir. Ulug‘ mutasavvuf Abdulxoliq G‘ijduvoni insonni «kichik olam» deb hisoblagan. Falsafada baxs yuritiladigan barcha masalalar inson muammosiga bevosita daxldordir. Umuman olganda, insonga daxldor bo‘lmasa, unga foyda keltirmasa, jamiyatning og‘irini yengil qilmasa, unday fanning keragi bormikan. Shu ma’noda, inson, avvallo, o‘zi uchun zarur bo‘lgan fanlarni, ilmlar va bilimlar tizimini yaratgan. Tabiat, madaniyat, siyosat, sivilizatsiya, bilish kabi

masalalar inson manfaatlari va insoniy mohiyatning namoyon bo‘lish shakllaridir. Ularning barchasi inson tabiati va mohiyati bilan bog‘liqdir.

<b>Asosiy masalalar</b>	<b>Mazmuni</b>
Insonning mohiyati	Inson kim?
Tana va ruh	Biologik va ma’naviy birlik
Ong	Tafakkur va o‘zini anglash
Erkinlik	Tanlov va mas’uliyat
Ma’naviyat	Qadriyatlar va maqsadlar
O‘lim va hayot	Inson mavjudligining ma’nosi

Falsafa insonni olamning tarkibiy qismi sifatida o‘rganadi. Inson shunday murakkab va ko‘p qirrali mavjudotki, uning mohiyati yaxlit bir butunlik sifatida inson, shaxs, individ, individuallik tushunchalari orqali ifodalanadi. Bu tushunchalar bir biriga yaqin va ma’nodosh bo‘lsa ham, bir-biridan farqlanadi. Inson — o‘zida biologik, ijtimoiy va psixik xususiyatlarni mujassamlashtirgan ongli mavjudot. Insonning biologik xususiyatlariga ovqatlanish, himoyalanih, zurriyot qoldirish, sharoitga moslashish kabilar xos. Inson boshqa mavjudotlardan sotsial xususiyatlari bilan ajralib turadi. Chunonchi, til, muomala, ramziy belgilar, bilim, ong, mahsulot ishlab chiqarish, taqsimlash, iste’mol qilish, boshqarish, o‘z-o‘zini idora etish, badiiy ijod, axloq, nutq, tafakkur, qadriyatlar, tabu (ruxsat va ta’qiqdash) shular jumlasidandir. Insonning psixik xususiyatlariga ruhiy kechinmalar, hayratlanish, g‘am-tashvish, qayg‘u, iztirob chekish, zavqlanish, kayfiyat kabilar kiradi. Inson shu xususiyatlari orqali yaxlit bir tizimni tashkil etadi. U

yaxlit mavjudot sifatida o‘z ehtiyojlarini qondiradi va insoniyat davomiyligini ta’minlaydi. Insonga xos bo‘lgan biologik xususiyatlarni ijtimoiy xususiyatlardan ustun qo‘yish yoki psixologik xususiyatlarni bo‘rttirish uning mohiyatini buzib talqin etishga, bir yoqlamalikka olib keladi. Falsafa tarixida inson to‘g‘risidagi ta’limotlarda biologizm, sotsiologizm, psixologizm kabi yo‘nalishlar vujudga kelgan.

Biologizm insonning tabiiy-biologik xususiyatlariga, sotsiologizm insonning ijtimoiy xususiyatlariga, psixologizm esa, ma’naviy, ruhiy, psixologik xususiyatlariga bir yoqlama yondashishga asoslangan edi. Inson mohiyatini falsafiy jihatdan chuqurroq tahlil qilishda shaxs, individ, individuallik tushunchalarining mohiyatini bilish va ularni bir — biridan farqlash muhimdir. Shaxs o‘zida sotsial sifatlarni mujassamlashtirgan insonni ifoda etadi. Kishilar shaxs bo‘lib tug‘ilmaydi, balki jamiyatdagina shaxs bo‘lib shakllanadi va rivojlanadi. Chunki insonga xos ijtimoiy sifatlar, fazilatlar avloddan-avlodga irsiy yo‘l bilan o‘tmaydi.

Inson dunyoga kelgan vaqtida jamiyat, siyosiy tuzum, madaniyat, ishlab chiqarish, oila, ommaviy axborot vositalari, mafkura kabi ijtimoiy tuzilmalar mavjud bo‘ladi. Inson ta’lim-tarbiya, mehnat, muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, bilim, turli munosabatlar, axloqiy me’yorlar, siyosiy g‘oya, milliy mafkura kabi omillar ta’sirida yashaydi, ularni o‘zlashtiradi va shu jarayonda ijtimoiylashadi, ya’ni shaxs bo‘lib shakllanadi. Natijada insonda yangicha fazilat va sifatlar paydo bo‘ladi. U yaratuvchan mavjudot sifatida faoliyat ko‘rsata boshlaydi. O‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, yuksak mas’uliyatni his etish, g‘oya uchun kurashish, mustahkam e’tiqodga

ega bo'lish, o'z fikr-mulohazalarini erkin bayon etish va ijtimoiy-siyosiy faollik shaxsga xos belgilardir. Shaxsning maqsad, g'oya va ideallari jamiyatdagi mavjud g'oya va mafkura bilan uzviy bog'liq ravishda shakllanadi. Milliy g'oya va mafkurani amalga oshirish, ezgu ideallar yo'lida hatto hayotini qurbon qilish shaxs hayotining bosh maqsadiga aylanadi. Shaxs mustahkam iymon-e'tiqod, g'oya va insoniy fazilatlarga ega bo'lgan, Vatan, millat tuyg'usi bilan yashaydigan, o'zida davr xususiyatlarini ifoda etadigan insondir.

Jamiyat o'z taraqqiyoti davomida vujudga kelgan muammolarni hal etish uchun shaxsning muayyan tarixiy namunalarini yaratadi. Har bir o'zgargan tarixiy sharoitda shaxs mohiyatini va mazmunini yangicha tushunish zaruriyati vujudga keladi. Bugungi adabiyotlarda harizmatik, shuhratparastlik, tajovuzkorlik va boshqa shakldagi shaxslar timsoli aks ettirilmoqda. O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish sharoitida fozil va barkamol inson shaxsini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoldi. Mamlakatimizda ta'lim tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar o'z oldiga ana shunday shaxsni shakllantirishni maqsad qilib qo'ydi. Inson tarixning yaratuvchisi sifatida tabiat taraqqiyotidagi uzluksizlikni ta'minlaydi. U o'z bilimi, tajribasi va yutuqlarini kelgusi avlodlarga meros qilib qoldiradi; tabiat va jamiyatni qayta quradi va takomillashtiradi. Inson o'z aqli tufayli butun koinot, tabiat taraqqiyotida buyuk yaratuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi, o'z tarixini yaratadi, uni avaylab-asraydi. Inson faoliyati va tajribalari jamiyatning takomillashuvi va kishilarning har tomonlama kamol topishi uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

## 2. Tabiat va jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati

Tabiat va jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati, yaratuvchilik mohiyati, oliy mavjudot ekani, vorislikning davomiyligini ta‘minlashi barcha ijobiy va foydali yutuqlarni saqlashi va targ‘ib etishi kabi xususiyati va qobiliyati tufayli inson muqaddas va tabarruk qadriyat hisoblanadi. Antropologiya insondagi insoniylikning namoyon bo‘lishi va rivojlanishini ruh bilan bog‘laydi. Ayrim tadqiqotchilar insonga xos bo‘lgan biror-bir xususiyatga alohida urg‘u bergan va shu orqali insoniy mohiyatni ochib berishga harakat qilgan. Masalan, I. Kant insondagi axloqiy jihatlarga ko‘proq e‘tibor bergan va uni ezgulikni yovuzlikdan farqlovchi mavjudot sifatida ta‘riflagan. Vladimir Solovev insonning boshqa mavjudotlardan farqini uyalish, achinish va oliy kuchlarga sig‘inish kabi xususiyatlarda, deb bilgan. Uning fikricha, inson o‘zining tuban mayllari va gunohlaridan uyalish qobiliyatiga ega. Faqat odamlarga emas, balki butun tirik jonga achinish va muqaddas kuchlarga sig‘inish insongagina xos. Inson tabiati — g‘oyat murakkab. Unda hayvoniy va ilohiy sifatlar mujassamlashgan. Lekin u — hayvon ham, farishta ham emas. Insoniy ruh va ma‘naviyat uni boshqa mavjudotlardan yuqori darajaga ko‘taradi. Insonni o‘rganadigan fan — antropologiya deb yuritiladi. Insonning kelib chiqishi haqida diniy va ilmiy yondashuvlar. Insonning kelib chiqishi eng murakkab va jumboqli fenomenlardan biri hisoblanadi.

Qadim zamonlardan boshlab ushbu fenomenni tushuntirishda bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikki paradigma mavjud: insonning xudo tomonidan yaratilganligi g‘oyasi va tabiiy tarixiy evolyusiya

g'oyasi. Ibtidoiy miflarda odamlarning kelib chiqishi ko'pincha mifik qahramonlarning transformatsiyasi, totem ajdodlar, butun mavjudot yaratilgan mifik davrdagi personajlarning transformatsiyasi natijasi yoki ularning ijod mahsuli sifatida tasavvur etiladi. Ayrim miflarda odamlarning paydo bo'lishi tasodifiy xususiyatga ega bo'lsa, boshqalarida demiurglar – totem ajdodlarning ongli ishi sifatida aks ettiriladi. Jahon dinlarida mavjud bo'lgan yaratilish aktining barcha tasvirlari o'z ildizlariga ko'ra aynan mifologiyaga borib taqaladi. Masalan, jahon dinlarida keng tarqalgan insonning xudo tomonidan loydan yaratilganligi haqidagi tasavvurning mifologik ildizlarga ega ekanligi yaqqol ko'rinib turadi. Vavilonda yaratilgan poema - "Enum Elish»da tasvirlanishicha dastlabki odam tartib xudolari va tartibsizlik (xaos) xudolari o'rtasida bo'lib o'tgan urushdan so'ng loy va qondan paydo bo'lgan.

Qadimgi Misrdagi afsonalardan birida Xnum degan xudo odamni kulolchilik charxi yordamida loydan yasalganligi aytiladi. Ayolning erkak kishining qovurg'asidan yasalganligi motivi Mesopotamiyada yaratilgan miflarga borib taqaladi. Insonning xudo tomonidan yaratilganligi haqidagi paradigma har doim diniy e'tiqodlar va ishonchlarga asoslangan. Keyingi paytda «kosmik tajriba» nazariyalari paydo bo'ldiki, ularning markazida ham odamning yaratilganligi haqidagi g'oya turadi. Diniy talqinlardan farqli o'laroq, ushbu nazariyalarda inson qandaydir o'zga planetaga mansub sivilizatsiya tomonida yaratilgan deb tasdiqlanadi. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, Yerdagi ko'plab noyob inshootlar (Misr ehromlari, Pasxa orolidagi toshdan yasalgan ulkan haykallar, faqat tepada qaraganda

ko‘rinadigan benihoyat ulkan rasmlar va hokazo) ana shu o‘zga sayyoraliklar tomonidan yaratilgan deb hisoblanadi. Fan o‘zga sayyoralarda sivilizatsiyaning mavjudligini va ular Yerga kelgan bo‘lishlari mumkinligini prinsip jihatidan inkor etmaydi.

Biroq, insonning o‘zga sayyoraliklar tomonidan yaratilganligini tasdiqlovchi hech qanday dalillar mavjud emas. Bu mavzuga oid barcha mulohazalar hozirga qadar mushohada-gipoteza bo‘lib qolmoqda. Insonning tabiiy-tarixiy kelib chiqishi to‘g‘risidagi falsafiy konsepsiyalar to XIX asrning oxiriga qadar faqat mushohadalardan iborat bo‘lib, hech qanday isbot-dalillarga ega emas edi. Biroq ilmiy ma‘lumotlarning to‘planishi bilan mazkur yondashuv ilmiy hamjamiyatda tobora ko‘proq ustunlikka ega bo‘la boshladi. Insonning hayvonlarga o‘xshab ketishini odamlar juda qadimgi zamonlardayoq payqaganlar. Antik fanning paydo bo‘lishi bilan inson va hayvonlarni qiyosiy tahlil qilish yo‘lidagi dastlabki urinishlar ham yuzaga keldi. Bunday harakatlarning dastlabkilaridan birini Qadimgi Gresiyada Arastu amalga oshirdi, Qadimgi Rimda yashagan vrach va anatom Klavdiy Galen esa birinchilardan bo‘lib odam bilan maymun o‘rtasidagi o‘xshashliklarni tavsiflab berdi. Odamning kelib chiqishi haqidagi tabiiy-ilmiy qarashlarning uzil-kesil tasdiqlanishida Ch. Darvinning «Tabiiy tanlanish natijasida turlarning kelib chiqishi» (1859) va «Insonning kelib chiqishi va jinsiy tanlanish» (1871) kabi asarlarida bayon etilgan evolyusiya nazariyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. XIX asrning o‘rtalariga qadar antropogenezning talqinlari tabiiy-ilmiy xususiyatga ega bo‘ldi, ya’ni antropogenez faqat tabiiy fanlar (anatomiya, embriologiya, evolyusiya nazariyasi va

boshqalar) doirasida izohlandi. Antropogenezning hozirgi zamon ilmiy nazariyasi endilikda tor tarmoq sohasi emas, balki tabiiy va ijtimoiy fanlarning tutashuv chegarasidagi majmuaviy fanlararo tadqiqotlardan iborat. Hozirgi zamon tasniflari ma'lumotlariga ko'ra, odam turiga, umurtqalilar kichik turiga, sut emizuvchilar sinfiga, primatlar guruhiga, gominoidlarning katta oilasiga, gominidlar oilasiga, Homo turiga mansubdir. Bundan 100-150 ming yil ilgari neoantroplar – hozirgi biologik tipdagi odamlar paydo bo'ladi Antik falsafa insonga mikrokosm, kosmosning bir qismi, ya'ni makrokosm – umuman dunyo bilan doimiy aloqada bo'lib turuvchi qism sifatida qaragan. Aynan ana shu antik davrda «O'z-o'zingni o'rgan» degan so'zlar aytilgan edi (Suqrot). Suqrotning shogirdi Aflotun (eramizgacha bo'lgan 428-347 yillar) insonning ruhi o'lmaydi, u har gal yangi tanaga ko'chib o'tadi, deb taxmin qilgan edi. Insonning o'zini o'rab turgan atrof dunyoni o'rganishga urinishi – bu ruhning tanga kirgunga qadar mushohada etgan abadiy g'oyalar olami haqidagi xotirotlaridir.

### Faylasuf

### Qarashi

Suqrot	—————→	“O'zingni bil”
Aflotun	—————→	Inson — ruh va tana birligi
Arastu	—————→	Inson — ijtimoiy mavjudot
Dekart	—————→	“Men o'ylayman, demak mavjudman”
Kant	—————→	Inson — maqsad, vosita emas
Marks	—————→	Inson — ijtimoiy munosabatlar mahsuli

Aflotun uchun inson ideali - donishmand, faylasuf bo'lib, uning ruhi ko'p «sayr qilgan» va shu sababli uning bilimlari eng to'g'ri va

qimmatlidir. Bunday komil faylasufni Arastu «o‘zini tafakkur etuvchi tafakkur» deb atagan edi. Inson haqidagi ta’limotni rivojlantirishga antik materialistlar Demokrit, Epikur, Lukresiy Kar va boshqalar salmoqli hissa qo‘shdilar. Ularning qarashlariga ko‘ra, inson hayotining maqsadi - ongli lazzatlanish, azob-uqubutlarga chap berish, ruhning sokin va tinch holatiga erishishdir. Shu sababli ular falsafaning asosiy vazifasi insonga baxtli bo‘lish yo‘lini ko‘rsatishdan iborat deb hisoblaganlar. Ularning fikricha, jon ayrim atomlardan tashkil topgan va o‘limga mahkum, tana halokatga uchragandan so‘ng atomlar yemiriladi. Inson o‘limdan qo‘rqmasligi kerak, zero toki u hayot ekan - o‘lim yo‘q, o‘lim kelganda esa inson yo‘q bo‘ladi. Umuman olganda antik falsafa «Inson nima?» degan savolga javob bermadi, balki ana shu savolni kun tartibiga qo‘ydi. O‘rta asr falsafasi asosan diniy falsafa o‘laroq, insonni unda ikki negiz: oliy (ruh) va past (tan) bir-biri bilan uzluksiz kurash olib boruvchi mavjudot sifatida qaradi. O‘rta asr Yevropa diniy falsafasining «otasi» Avreliy Avgustin Avliyo insonning mohiyatini aynan ruh va faqat u tashkil etadi, deb hisoblandi. Tana esa vaqtinchalik qobiqdan, ruh qamalgan joydan, ruh «zindoni»dan boshqa narsa emas. Foma Akvinskiyning fikriga ko‘ra odam ruh bilan tanning uyg‘un birligidan iborat va bu hol uni quyi, hayvoniy dunyo bilan oliy, ilohiy, farishtalar olami o‘rtasida arosatda qolgan mavjudot qilib qo‘yadi. Unda jismoniylik qancha ko‘p bo‘lsa, u hayvonga shunchalik yaqinlashadi, ruhiyat qancha ko‘p bo‘lsa u shuncha farishtalarga yaqinlashadi.

Sharq-musulmon falsafasi doirasida inson muammosiga ikki xil yondashuvni ko‘rish mumkin. Ulardan biri ko‘proq taqdir haqidagi

islom aqidasi suyanadi. Inson taqdiri oldindan belgilab qo'yilgan, shu sababli insonning qo'ldan keladigan birdan-bir ish - bu o'zini ana shu taqdirda belgilab qo'yilganidek tutish. Biroq, Forobiy, Beruni, Ibn Sino, Alisher Navoi, Mirza Bedil, XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi ma'rifatparvarlar - Axmad Donish, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Sattorxon Abdulg'afforov va boshqalar inson haqidagi gumanistik, ma'rifatparvar va demokratik konsepsiyaning shakllanishiga katta hissa qo'ydilar. Ularning ijodlari uchun insonga, uning kuchiga, aqliga, irodasiga ishonch xosdir, ular ommani ma'rifatli va bilimli bo'lishiga da'vat etdilar. XIX asr falsafiy fikrning inson haqidagi ta'limotni rivojlantirishdagi eng muhim yutuqlaridan biri - bu Lyudvig Feyerbaxning (1804-1872) falsafiy antropologizmidir. U inson mohiyati muammosini falsafasining «birdan-bir, universal va eng oliy» muammosi sifatida qaradi va birinchi planga olib chiqdi.

Biroq Feyerbax, aslida, insonga biologik nuqtai nazardan qaraydi, uning ijtimoiy mohiyatini izohlamaydi. Freydizmga avstriyalik psixolog Zigmund Freyd (1856-1939) asos solgan. U shaxs tuzilmasida uchta asosiy qatlamni ajratib ko'rsatdi «U» ongosti, «Men» yoki «EGO» (ong), Yuksak «Men» (yuksak ong). Inson muammosining falsafaga oid masalalari deb quyidagilarni hisoblash mumkin:


- a) inson mohiyati;
- b) insonda ijtimoiylik va biologik (tabiiylik)ning nisbati;
- v) shaxsning erkinligi;
- g) insonning mavjud bo'lishi (borlig'i) va mohiyatining dialektikasi;
- d) inson hayotining maqsad va ma'nosi.

Bu albatta inson muammosining falsafiy spesifikasi faqat yuqoridagilar bilan cheklanadi, degan emas. Biz faqat asosiylarini sanab oʻtdik xolos. Falsafa va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarda «individ», «individuallik», «shaxs» singari tushunchalar koʻp qoʻllaniladi. Ularning oʻxshashligi va farqlari nimada? Bu tushunchalarning har birining mohiyati nimadan iborat? Yuqoridagi tushunchalar qatorida «individ» tushunchasi birinchida turadi. U eng avvalo, muayyan insonning boshqa odamlardan alohidaligiki, «chegaralanib» olganligini ifoda etadi. Individ - bu Homosapiens biologik turining ayrim olingan, yakka vakili. Individning asosiy xususiyati - bu uning boshqalardan ajralganligi, alohidaligidir. Individ - bu insonning eng oddiy va abstrak tavsifi. Individ - eng avvalo qandaydir koʻplikni bir vakili, koʻplarning biri. Shu maʼnoda deyarli har bir odam - individ (baʼzan individium ham deyiladi va yoziladi).

Shaxs tushunchasi falsafada va umuman insonni oʻrganuvchi fanlar majmuasida eng murakkab tushunchadir. Inson shaxsi rivojlanishining eng muhim biologik omili inson miyasidir. Ammo shaxs mohiyati - bu ijtimoiy xususiyatga molik hodisa. Miya esa moddiy organ boʻlib, u orqali shaxs oʻz-oʻzini namoyon etadi. Suitsid – oʻzini oʻldirish. Parasuitsid – oʻz muammolariga boshqalar eʼtiborini qaratish uchun oshkora oʻz sogʻligiga zarar yetkazishga urinish. Passionarlar – salbiy impulslarga ega boʻlgan, hech narsaga qaramay xatto oʻz zarariga ish tutishga intiladigan odamlar. Subpassionarlar – ijobiy, hayotbaxsh impulslarga ega odamlar.

### 3. Ongning kelib chiqishi, mohiyati tuzilishi, shakllari va funksiyalari.

Ong – falsafaning sub’ektiv reallikni ifodalovchi g‘oyat keng kategoriyasidir; odamning, uning miyasi va psixikasining tashqi dunyoni ideal aks ettirishidir; insonning ma’naviy dunyosidir, o‘zining dunyoda borligini anglab yetishidir; uning tashqi dunyoga munosabatidir. Odam – fikr yurituvchi, ongga ega mavjudotdir. Ong yordamida odam tashqi dunyoda faol harakat qiladi, uni biladi, u bilan sub’ekt-ob’ekt munosabatda bo‘ladi. Ong tufayli shaxsning ma’naviy dunyosi, uning emotsiyalari, kechinmalari, tashvish va istaklari, orzuumidlari, fantaziyalari mavjud.



Xuddi shu ongi tufayli inson hayvonot dunyosidan farq qiladigan aqli mavjudot sifatida mavjuddir. Ong bir qator fanlarning: psixologiya, sotsiologiya, pedagogika va oliy asab faoliyati fiziologiyasining o‘rganish ob’ektidir. O‘zaro Fan va falsafada ong muammosi – bu pirovardida, psixologik, fiziologik va sotsial holatlarning nisbati, munosabati masalasidir: agar inson aqli materiya

evolyusiyasining natijasi bo'lsa, fikr fikrlovchi materiyaning, inson bosh miyasining, miya katta yarim sharining oliy xossasidir. Inson ongi til bilan uzviy bog'liqdir. Til fikrning moddiy ko'rinishidir, shaklidir. Odam fikrning mazmunini turli lisoniy tizimlar: og'zaki nutqlar va yozma matnlar, hozirgi zamon informatikasining sun'iy tillari yoki turli simvollar, kodlar, shifrlar, formulalar va hokazolar orqali bilib oladi.

Ong fenomenini falsafiy tahlil qilishga materializm, idealizm, dualizm, gilozoizm, panteizm kabi falsafiy oqimlarda turlicha yondashuvlar mavjud. Materializm namoyandalarining ko'pchiligi ongni in'ikosning alohida shakli deb biladi. Materialistik nuqtai nazardan in'ikos harakatlanuvchi, rivojlanuvchi, o'zgaruvchi materiyaning atributlaridan biridir, ong – tashqi dunyoning inson miyasidagi in'ikosining oliy shaklidir, jonli tabiat evolyusiyasining yakunidir, bu – bugungacha ma'lum bo'lgan moddiy tuzilmalardan eng murakkabining – inson miyasining – qurshab turgan dunyoni ideal obrazlar shaklida aks ettirish layoqatidir. Idealistik falsafa ongni, ruhiy, ideal hodisani, moddiylikka bog'liq bo'lmagan, undan oldingi va hatto uni tug'diradigan omil deb biladi.

Panteizm falsafasining vakillari gilozoizmga yaqin pozitsiyada turadilar. Ular «Xudo», «tabiat», «ruh» tushunchalarini maksimal darajada bir-biriga yaqinlashtiradilar. Panteizm g'oyalari ilk sufizm oqimiga yaqin turadi. O'rta asr Sharqining atoqli mutafakkiri al-G'azzoliy shu oqimning yorqin vakili edi. Panteizm g'oyalarini Jordano Bruno va Benedikt Spinoza yangi zamonning Yevropadagi falsafiy an'anasi asosida rivojlantirdilar. Hozirgi, postklassik falsafaning ko'pdan-ko'p oqimlari ongni tahlil qilishga zo'r e'tibor bermoqdalar.

Masalan, Z.Freyd, K.Yung, E.Fromm nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan psixoanalizfalsafasizni, uning sub‘ektning ma‘naviy borlig‘idagi rolini, shaxsning ongi va xulq-atvoriga ta‘sirini o‘rganishga katta e‘tibor beradi. Neotomizm – hozirgi zamon katolitsizmi falsafasi – butun mavjudotning ilohiy yaratilishi konsepsiyasiga asoslanadi. Neotomizm insonning yashashdan maqsadi ilohiy kashfiyotni kuzatishdan iborat deb biladi. Neotomizm kishi ongini individ tanasiga yangi shakl beruvchi shaxsning asosi deb biladi.

Hozirgi zamon «yashash falsafasi» – ekzistensializm - ongni qiziq talqin qiladi. In‘ikos etishda o‘zaro ta‘sir qiluvchi moddiy tizimlar o‘z izini, bir-birlari to‘g‘risidagi xotirani qoldiradi va keyinchalik faqat «o‘zi o‘zida» emas, balki «boshqada» ham yashaydi. Ongning kelib chiqishi muammosi bo‘yicha quyidagi falsafiy-nazariy yondashuvlar tarixan tarkib topdi. Diniy yondashuv. Diniy nuqtai nazardan ong (jon) Xudo tomonidan yaratilgandir, ya‘ni u ilohiy xilqatdir, iudaizmda ham, nasroniylikda ham, islomda ham birday e‘tirof etilgan Tavrotda jonning ilohiy xilqatligi qo‘yidagicha tasvirlangan: «Xudoyi taolo odamni yer gardidan yaratdi va uning yuziga hayot nafasini purkadi va odam tirik jonga aylandi».

Idealistik yondashuv. Idealizm ideal narsaning, ruhiy mohiyatning moddiy voqelikdan tashqarida va ungacha mavjud bo‘lganligini e‘tirof etadi. Turli idealistik tizimlarda ongning kelib chiqishi turlicha talqin qilinadi. Bir xil tizimlarda u – xuddi dindagi kabi – ilohiy xilqatdir. Boshqa tizimlarda – dualizmda, gilozoistik ta‘limotlarda – ong abadiy yashaydi, buning boisi bu ta‘limotlarga binoan ruhiy substansiyaning mustaqil yashashi yoki tabiatning

umumiy jonlanishidir. Uchinchi xil tizimlarda (Xegel falsafasidagi singari) odamning ongi allaqanday azaliy ruhiy mohiyat (Absolyut Ideya, Olam Ruhi) rivojining muayyan bosqichida paydo bo‘ladi.

Materialistik yondashuv. Materializm doirasida ham ongning kelib chiqishiga turlicha yondashuvlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Ba‘zan vulgarmaterializmdeb ataladigan fizikalizm va radikal reduksionizm idealni tamomila moddiydan, fizik reallikdan iborat qilib qo‘yib, ongni materiyaning muayyan turi deb talqin qiladi. Ongning kelib chiqishi muammosi eng murakkab muammolardan biridir. Uni hal qilishning qiyinligi ikki omil bilan bog‘liq.

Birinchidan, so‘z bizning zamonamizdan ancha ilgari, bundan yuz ming yillab avval bo‘lib o‘tgan jarayonlar va voqealar to‘g‘risida boradi.

Ikkinchidan, so‘z ideal hodisa kabi fenomen to‘g‘risida, ya’ni o‘zida moddiylikdan asar ham bo‘lmagan hodisa to‘g‘risida borayotganligi sababli, tadqiqot ob’ekti – ongning arxaik shakl va faktlari – bizga bevosita berilgan emas. Ongning kelib chiqishini tarixan qayta tiklash fanlararo ilmiy muammo bo‘lib, uni faqat kompleks yondashuv asosidagina hal qilish mumkin. Ong jumbog‘ini hal etish ongning moddiy manbai bo‘lgan bosh miya faoliyatining ilmiy tahlili bilan bog‘liqdir. Bosh miya bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan 14 milliarddan ortiq neyronlardan – asab hujayralaridan – iborat murakkab funksional tizimdir.

Hozirgi zamon fanida odam miyasi neyronlarining bu majmuasi qanday qilib ong va tafakkurning paydo bo‘lishiga, tushunchalarning shakllanishi va yechimlar qabul qilinishi jarayonlariga, murakkab,

ongli harakat qilishga, o'rganish, xotirlash, prognozlashga olib kelganligi hanuzgacha ochiq muammoligicha qolmoqda. Miyada va asab tizimida sodir bo'layotgan fiziologik jarayonlarni priborlar yordamida qayd etish va o'lchash mumkin, chunki bu jarayonlar fizik-ximik tabiatga ega. Lekin ongning o'zi ular bilan cheklanmaydi. Bu yerda fizik signal yordamida uzatiladigan, lekin o'z mazmuniga ko'ra signalning fizik xossalari bilan cheklanmaydigan axborot bilan bevosita o'xshashlik bor. Miyasiz ong bo'lishi mumkin emas. Bir butun, sog'lom, normal ishlovchi miyaning bo'lishi ongning zarur shartidir. Boshqa, eng muhim sharti – ijtimoiy muhitdir, chunki odam biopsixosotsial mavjudotdir, ya'ni bir vaqtning o'zida ham biologik, ham sotsial mavjudotdir. Atrofdagi voqelikka mos va muvofiq bo'lgan, faol, muayyan maqsadga yo'naltirilgan amaliyot, hamda odamlarning bir-biri bilan muloqoti, aloqalari bizning uzoq o'tmishdagi ibtidoiy ajdodimizning aqlli odamga aylanishiga yordam bergan ijtimoiy sharoitlardir. Odamlarning sotsiumdagi o'zaro ta'siri, ularning birgalikdagi mehnat faoliyati jarayonidagi aloqasi ayrim individning ham, butun sotsiumning ham ongi paydo bo'lishi, mustahkamlanishi va rivojlanishiga yordam berdi. Ongning paydo bo'lishida asosiy ijtimoiy rolni mehnat o'ynaydi, chunki mehnat odamni shaxs sifatida shakllantiradi, uning ijodiy potentsiali, imkoniyati va qiziqishlarini, qurshab turgan dunyoni tushunishga, uning tarkibida o'z o'rmini tanlashga, uni o'z maqsad va vazifalariga bo'ysindirishga, inson uchun foydali qilishga intilishlarini rivojlantiradi.

Ong paydo bo'lishining yana bir eng muhim omili tildir. Til odamlarning ijtimoiy tajribalarini ifodalab beradi, insoniyatning tarixiy

taraqqiyotida tafakkurning uzluksizligini ta'minlaydi. Inson fikri, g'oyalari, tasavvurlari so'zlarda ifodalanadi, shakllanadi, shuning uchun til, bu – fikrni, ongni ifodalashning universal vositasidir, kishilarning aloqa qilish, axborot almashish vositasidir. Ongning tuzilishi, shakllari va funksiyalari. Ongga, bir butun bog'langan tizim sifatida, uning sezgi, fikr, emotsiya, iroda va xotira kabi ajralmas elementlari kiradi. Birbutunlik ongning tizimiy sifati bo'lib, ong fenomeni mohiyatining o'ziga xosligi uning tarkibiy qismlarining har qandayiga nisbatan mutlaqo zarurligini bildiradi. Sezgi. Inson sezgilari tashqi dunyo haqidagi axborotlarni asosiy yetkazib beruvchilardir. Ko'rib, ushlab, hidlab, eshitib va ta'mga qarab sezishlar sub'ektga dunyoni bilishga, o'zini qiziqtirgan ob'ektni topishga, u turgan joyni aniqlashga, uning rangi, hidi, ta'mi, qattiq yo yumshoqligi, xarorati va boshqa sifatlari haqida axborot olishga imkon beradi.

Idrok. Idrok – sub'ektning axborotni qayta ishlashida sezgidan keyingi bosqichdir. Bu bosqich davomida ob'ekt, uning zamon va makoniy tavsifi yaxlit holda anglab olinadi va ideal obraz unga taalluqli moddiy ob'ektning o'zi bilan, ya'ni idrok ob'ektining o'zi bilan taqqoslanadi. Tafakkur tufayli sezgi va idrok natijalariga ma'no va mazmun beriladi, munosib va tushunish qulay shakl izlab topiladi.

Emotsiya. Ong tuzilishining emotsional komponenti hodisalar va voqealarga ijobiy yoki salbiy munosabat (umid, quvonch, qo'rquv, umidsizlik va sh.k.) yoki loqaydlikni keltirib chiqaradi. Shaxsni baxslashish, tashvishlanish, emotsional shok, affekt holatida bo'lishga (rashq qilish, nafratlanish, yomon ko'rishga) undaydi, uning stress yoki frustratsiya (gangirab qolish, ruhiy ezilish) holatida bo'lishiga,

quvonishi yoki g'azablanishiga sabab bo'ladi. Kechinmalar va emotsiyalarning axborot jihatidan muhim tomoni sub'ektning ob'ektga bergan bahosidan iborat (yaxshi - yomon, yaxshiroq - yomonroq va hokazo).

Iroda. Emotsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish sub'ektning irodasi bilan uzviy bog'liqdir. Sub'ekt faoliyat ko'rsatayotgan ob'ektiv sharoit bilan uni amalga oshirishning sub'ektiv imkoniyatlari tafovut qilib qolganda sub'ekt faoliyatini iroda yordamida tiklash, tartibga solish zarur bo'ladi. Shaxs avval yechim tanlab, qaror qabul qilib, so'ngra uni amalga oshirishi zarur bo'lib qolgan hayotiy vaziyatda iroda ishga solinadi.

Xotira. Ong tizimida xotira tajribaning integral yig'uvchisi va ifodachisi bo'lib xizmat qiladi. Xotira - kishining yoki kishilik jamiyatining o'zining yoki o'zganing o'tgan zamondagi faoliyatini hozirgi zamonda saqlab qolish va tiklash layoqatidir. Xotira shunday bir yo'naltiruvchiki, u tufayli sub'ekt vaqtda ham, makonda ham muvaffaqiyatli yo'nalish oladi, bu esa uning faoliyat rejalari, sxemalari va dasturlarini tuzishida ifodalanadi. Xotiraning boshqa bir funksiyasi – o'tmishdagi voqelikni tafakkuriy qayta tiklashdir. Xotira insonga tarixiy o'tmishni va istiqbolni ko'rishga, kelajakni oldindan ko'rishga imkon beradi.

Ong va ongosti. Ongdan tashqari, odamning xatti-harakatiga, uning butun ruhiy olamiga g'ayrushuuriy jihatlar va ongosti katta ta'sir qiladi. Shu ikki komponent - ong va ongosti - bir-biriga kuchli ta'sir o'tkazadi, ular ajralmasdir va, ifodali qilib aytganda, qattiq o'zaro nazorat va ta'sir ostida bo'ladi. Hozirgi ilmiy tasavvurlarga ko'ra,

odamning ongi borib yetmagan, anglab olinmagan psixik faoliyati shunday sezgilar, idroklar va tasavvurlarni o'z ichiga oladiki, ba'zan ularga odamning aqli yetmaydi, odam ob'ektga qaraydi-yu, uni ko'rmaydi, payqamaydi, eshitadi-yu, eshitganini idrok etmaydi. Ongosti sohasi ruhiy borliqning tush, gipnoz holati, anglab olinmagan istak, sub'ektning hayotidagi noxush voqea arafasida oldindan his qilingan qo'rquv kabi shakllarini qamrab oladi. Ongostida shaxsning hayotidagi juda ko'p hajmdagi axborotlar, uning individual turmush tajribasi o'rinishib, yig'ilib qoladi. Ongostini falsafiy va psixik analiz qilishga Zigmund Freyd, Karl Yung, Erix Fromm katta e'tibor berdilar.

Fikr. Ong muayyan shakllarda, ya'ni fikr, shubha, e'tiqod, bilim va ishonch shakllarida mavjud bo'lib, bular «ongning epistemik shakllari (grekcha episteme – bilim) nomini olgan. Kishining yoki kishilar guruhining fikri ularning u yoki bu masala bo'yicha nuqtai nazarlarini bildiradi va sub'ektning hayot yo'liga, dunyoni his qilishga, dunyoqarashiga asoslangan, u ayrim shaxslarning individual tajribasi va butun sotsiumning kollektiv tajribasi bilan, shuningdek insonning va insoniyatning xotirasi bilan uzviy bog'liqdir. Shubha. Ongning boshqa bir epistemik shakli shubhadir. U shunday ma'lumotlarni, axborotlarni o'z ichiga oladiki, ularning haqiqiyliigi, ishonchliligi va foydaliligiga sub'ekt oxirigacha ishonmaydi, unda shu ma'lumotlar to'g'risida qat'iy fikr va bilim bo'lmaydi. Shubha eski bilimdan yangisiga o'tishda muhim ahamiyatga ega.

E'tiqod. Shubhaga qarama-qarshi o'laroq, e'tiqod ongning shunday shakli, uni sub'ekt to'g'ri, haqiqiy, ishonchli va mantiqan ziddiyatli emas deb biladi. Shaxsning sub'ektiv e'tiqodi negizida

quyidagi sabablar yotadi: muayyan ma'lumotlar, axborotlar va faktlarni isbotsiz, aksiomatik tarzda ishonchli deb qabul qilish hamda hamma tomonidan e'tirof etilgan fikrlarni va obro'li, hurmatli shaxslarning fikrlarini tanqid va tahlilsiz qabul qilish. Faktlar, kuzatuv va turmush tajribasining ma'lumotlari, ilmiy nazariyalar va qonunlar, mantiqiy dalillar, amalda va fanda sinab ko'rilgan qoidalar ob'ektiv e'tiqodning asosi hisoblanadi. Faqat sub'ektning o'zi tomonidan chuqur anglab olingan, botinan qayta ishlangan, o'zlashtirib olingan bilimgina uning haqiqiy va mustahkam e'tiqodiga aylanadi. Bilim. Ongning fikr, e'tiqod va shubhani o'zida birlashtiruvchi, sintez qiluvchi shakli bilimdir. Bilim dunyoning sub'ektga ma'lum bo'lgan, uning tomonidan o'rganilgan va bilib olingan ob'ektiv xossalari va aloqalarining ideal ifodasidir. Ongning asosiy, muhim funksiyalaridan biri refleksiv, ya'ni odamning o'z-o'zini anglashidir, ya'ni o'z borlig'ini reflektiv tarzda anglashidir. «O'zingni o'zing bil» - antik faylasuflarning bu shiorini odamning tafakkuri o'z-o'zini anglash yordamida amalga oshirmoqda. O'z-o'zini anglashning asosiy elementlari o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini kuzatish, o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini baholashdir. Odam ongining boshqa bir muhim funksiyasi hermenevtik (tushunish) funksiyasidir. Asosiy tushunish funksiyasi individning tabiiy va ijtimoiy muhitda ongli ravishda harakat qilishi va yo'l tutishini ta'minlash bilan bog'liqdir. Har qanday tushunish - qandaydir tushunmovchilikni bartaraf etish jarayonidir, ya'ni tushunish voqelikning biron-bir hodisasini anglab olish jarayonidir. Shu anglab olish asosida mazkur hodisa ahamiyati fahmlab olinadi va u inson tomonidan o'zlashtiriladi. Ongning yana bir funksiyasi ijodiy funksiya

bo'lib, u maqsad qo'yishda, prognozlashda, kishi harakatlarining kutilayotgan natijalarini oldindan ko'rishda ongning faolligini nazarda tutadi. Ongning ijodiy faolligi konstruktiv-o'zgartiruvchi faoliyat bilan, yangini yaratish bilan uzviy bog'liqdir. Ijodiyot- insoniyatning tabiiy resurslarni ongli ravishda o'zlashtirishi, shuningdek inson qobiliyatining rivojlanishi natijasida yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlar yaratish jarayonidir.

## Dars o'tish metodi

### DARS MAQSADI

Ta'limiy:

- Talabalarga **insonning mohiyati, biologik va ijtimoiy tabiati, shaxs tushunchasi** haqida bilim berish
- Inson hayotining ma'nosi va maqsadi haqidagi falsafiy qarashlarni tushuntirish

Tarbiyaviy:


- Talabalarda **o'zini anglash, hayotga mas'uliyat bilan qarash, insoniy qadriyatlarga hurmat** tuyg'usini shakllantirish


Rivojlantiruvchi:

- Falsafiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish
- O'z fikrini asoslab bayon qilish ko'nikmasini shakllantirish

### KERAKLI JIHOZLAR

- Doska va marker
- Slayd yoki rasmi materiallar (ixtiyoriy)
- Tarqatma kartochkalar
- Baholash varaqalari
-

DARSNING BORISHI	
<p><b>I. Tashkiliy qism (5 daqiqa)</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Salomlashish</li> <li>• Davomatni aniqlash</li> <li>• Talabalarni 4 guruhga bo'lish:               <ol style="list-style-type: none"> <li>1. <b>Mohiyat</b></li> <li>2. <b>Shaxs</b></li> <li>3. <b>Erkinlik</b></li> <li>4. <b>Mas'uliyat</b></li> </ol> </li> </ul>	<p><b>II. O'tgan mavzuni takrorlash (5 daqiqa)</b></p> <p>Savollar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Falsafa nimani o'rganadi?</li> <li>• Inson nima uchun falsafaning markazida turadi?</li> </ul>
<p><b>III. Kirish motivatsiyasi (10 daqiqa)</b></p> <p> “Aqliy hujum” metodi: Savol doskaga yoziladi:</p> <p>“Inson kim?”</p> <p>Talabalar javoblari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Biologik mavjudot</li> <li>• Ijtimoiy mavjudot</li> <li>• Ongli mavjudot</li> <li>• Mas'uliyatli mavjudot</li> </ul> <p>O'qituvchi xulosa qiladi:</p> <p>Inson — <b>tana, ong va jamiyat birligi</b> bo'lgan murakkab mavjudot.</p>	<p><b>IV. Asosiy qism (45 daqiqa)</b></p>
<p><b>1Nazariy qism (15 daqiqa)</b></p> <p>O'qituvchi tushuntiradi:</p> <p>Inson:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Biologik va ijtimoiy mavjudot</li> </ul>	<p><b>2Amaliy qism: “Agar men bo'lsam...” (15 daqiqa)</b></p> <p>Har guruhga vaziyat beriladi:</p> <p>Vaziyatlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Boylik va vijdon to'qnashsa?</li> </ol>

<ul style="list-style-type: none"> <li>• Individ, shaxs, individuallik tushunchalari</li> </ul> <p>Inson hayotining ma'nosi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Baxt</li> <li>• Burch</li> <li>• Mas'uliyat</li> <li>• O'zini ro'yobga chiqarish</li> </ul> <p>Erkinlik va mas'uliyat:</p> <p>Erkinlik doimo mas'uliyat bilan birga keladi.</p>	<p>2. Haqiqatni aytish zarar keltirsa?</p> <p>3. Erkinlik boshqalarga zarar bersa?</p> <p>4. Manfaat va burch o'rtasida tanlov bo'lsa?</p> <p>Topshiriq:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Qaror qabul qilish</li> <li>• Falsafiy asos bilan izohlash</li> </ul>
<p><b>3“Falsafiy bahs” metodi (15 daqiqa)</b></p> <p>Mavzu:</p> <p>“Inson taqdiri o‘zi qo‘lidadimi yoki oldindan belgilanganmi?”</p> <p>Guruhlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• 1-guruh: Taqdir hal qiladi</li> <li>• 2-guruh: Inson o‘zi hal qiladi</li> </ul> <p>Dalillar bilan himoya qilishadi.</p>	<p><b>V. Mustahkamlash (10 daqiqa)</b></p> <p> <b>“Qadriyatlar piramidasi”</b></p> <p>Qadriyatlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Baxt</li> <li>• Boylik</li> <li>• Sog‘liq</li> <li>• Oila</li> <li>• Bilim</li> <li>• Erkinlik</li> <li>• Vijdon</li> <li>• Obro‘</li> </ul> <p>Topshiriq:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Eng muhimidan kam muhimiga qarab joylashtirish</li> </ul> <p>Nega shunday joylashtirilganini asoslash</p>
<p><b>VI. Baholash (3 daqiqa)</b></p>	<p><b>VII. Yakuniy xulosa (5 daqiqa)</b></p> <p>O‘qituvchi xulosasi:</p>

<p><b>Baholash mezonlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Faollik — 2 ball</li> <li>• Fikr bildirish — 2 ball</li> <li>• Guruh ishida ishtirok — 2 ball</li> <li>• Mantiqiy asos — 2 ball</li> <li>• Munozara madaniyati — 2 ball</li> </ul> <p>👉 Jami: 10 ball</p>	<p>Inson — o‘z hayotining muallifi. Ammo u <b>har bir tanlovi uchun mas’uldir.</b></p>
<p><b>VIII. Uyga vazifa</b></p> <p>1-variant:</p> <p>“Inson bo‘lib yashash nimani anglatadi?” mavzusida esse (1–2 bet)</p> <p>2-variant:</p> <p>Bir faylasufning inson haqidagi fikrini tahlil qilib kelish (Platon, Forobiy, Kant, Nitshe va boshqalar)</p>	

### **Nazorat savollari:**

1. Insonning sotsial xususiyatlarini bilasizmi?
2. Ong paydo bo‘lishining qanday shartlari bor?
3. Ong qanday funksiyalarni bajaradi?
4. Ongsizlik nima?

## Test savollar:

### 1. Falsafiy antropologiya nimani o‘rganadi?

- A) Tabiat qonunlarini
- B) Jamiyat taraqqiyotini
- C) Inson mohiyati va tabiatini
- D) Texnika rivojini

### 2. “Inson — ijtimoiy mavjudot” degan fikr kimga tegishli?

- A) Aflotun
- B) Arastu
- C) Suqrot
- D) Dekart

### 3. “Men o‘ylayman, demak mavjudman” degan fikr muallifi kim?

- A) Kant
- B) Marks
- C) Dekart
- D) Suqrot

### 4. Insonning biologik tomoni nimani bildiradi?

- A) Ma’naviyatini
- B) Ijtimoiy munosabatlarini
- C) Jismoniy va tabiiy xususiyatlarini
- D) Axloqiy qadriyatlarini

### 5. Insonning ma’naviy tomoni nimani o‘z ichiga oladi?

- A) Faqat tana ehtiyojlarini
- B) Qadriyatlar, e’tiqod, ongni
- C) Mehnat faoliyatini
- D) Biologik instinktlarni

### 6. Kant ta’limotiga ko‘ra, inson nima?

- A) Vosita
- B) Tabiat mahsuli

- C) Maqsad
- D) Jamiyat quroli

**7. Inson ongining asosiy vazifasi nima?**

- A) Faqat eslab qolish
- B) Borliqni anglash va bilish
- C) Faqat his qilish
- D) Faqat harakat qilish

**8. Erkinlik va mas'uliyat qaysi soha bilan bog'liq?**

- A) Biologiya
- B) Fizika
- C) Etika va falsafa
- D) Matematika

**9. Inson mohiyati deganda nima tushuniladi?**

- A) Faqat tashqi ko'rinish
- B) Insonning ichki va ijtimoiy tabiatining majmui
- C) Faqat jismoniy kuch
- D) Faqat kasbi

**10. Falsafiy antropologiyaning asosiy savoli qaysi?**

- A) Dunyo qanday yaratilgan?
- B) Jamiyat qanday rivojlanadi?
- C) Inson kim?
- D) Ilm nima?

# **ASOSIY VA QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI**

## **Nazariy-metodologik**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.: O'zbekiston, 2016.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz.-T.:O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-T.: O'zbekiston, 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2017 yil 20 sentyabr.
5. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-24 jildlar.-Toshkent: O'zbekiston, 19962016.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.- Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

## **Asosiy adabiyotlar**

1. Abdulla Sher. Estetika.Darslik. -Toshkent: O'zbekiston, 2016.
2. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010
3. Osnovi filosofii. Uchebnik. Izdanie 2-e, pererabotannoe, dopoln. /Pod.red. M.A.Axmedovoy, B.C.Xana B.C.Xana. – T.: Mehnat. 2004.
4. Po'latova D, Izzetova E. Filosofiya. - T.: Sharqshunoslik, 2012. 340 b

5. Saifnazarov I i dr. *Filosofiya*. - T.: 2002.
6. Tulenov J., Tulenova G., Tulenov K. *Falsafa. Darslik*. – T.: Fan texnologiyalar, 2016.
7. *Falsafa /M.Axmedovanning taxriri ostida*. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. - 496 b.
8. *Falsafa. (O'quv qo'llanma) /E.Yusupovning taxriri ostida ostida*. - T.: Sharq, 1999.-496 b.
9. Husanov B., G'ulomov B. *Myomala madaniyati. Darslik*. – T.: Iqtisod-moliya, 2010.
10. Sharipov M. , Fayzixujaeva D. *Mantiq..* - T.: Universitet, 2007.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Abu Ali ibn Sino. *Tib qonunlari. I-Jild*. -T.: Xalq merosi, 1992.
2. Abu Nasr Forobiy. *Fozil odamlar shahri*. - Toshkent: Xalq merosi, 1993. - 224 b.
3. Abu Nasr Forobiy. *Istoriko-filosofskie traktati. Dialektika*.- Alma-Ata: "Nauka", 1985.
4. Abu Rayxon Beruniy. *Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. T II*. - T.: Fan, 1968.
5. Ahmad Yassaviy. *Hikmatlar*.- T., 1991.
6. Alisher Navoiy. *Majolis un-nafois*.- T., 1996.
7. . Allayarova S. *Badiiy ijod germenevtikasi* – T.: Universitet, 2011
8. Avloniy A. *Turkiy guliston yoxud axloq*. – T.: O'qituvchi, 1992.
9. Beruniy, Abu Rayhon. *Tanlangan asarlari: T.1. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar*. - T.: Fan, 1968.
10. Bobur Zaxiriddin Muhammad. *Boburnoma*.- T., 1996.

11. Buyuk siymolar, allomalar.I-II-Jild.- T., 1995.
12. Chanishev A. Filofofiya drevnego mira. - M.: Visshaya shkola, 2001. - 374 s.
13. Choriev A. Inson falsafasi. -Toshkent.: O'FMJ, 2006.
14. Falsafa. Mamashokirov S. Tahriri ostida.-T.:Sharq, 2005.
15. G'arb falsafasi. - Toshkent: Sharq, 2004. - 720 b.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b>		3
<b>1-mavzu.</b>	<b>Axloq va qadriyatlar falsafasi (Etika).</b>	6
<b>2- mavzu.</b>	<b>Estetika nazariyasi.</b>	31
<b>3- mavzu.</b>	<b>Inson falsafasi</b>	57
<b>ASOSIY VA QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR</b>		78

ULFATILLAYEVA SAYYORA SOBIRJON QIZI

Falsafa fanidan  
(Etika, Estetika, Inson falsafasi)

O'quv-uslubiy qo'llanma

Bosishga ruxsat etildi. 03.02.2026 y.  
Qog'oz bichimi 60x84 1/16. Times New Roman  
garniturasida terildi.  
Ofset uslubida oq qog'ozda chop etildi.  
Nashriyot hisob tabog'i 6,25, Adadi 50. Buyurtma № 21-02  
Bahosi kelishuv asosida.

«ZUXRO BARAKA BIZNES» MChJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent shahar, Chilonzor tumani,  
Bunyodkor shoh ko'chasi 27 A-uy.

